

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI
KREDIT-IQTISOD FAKULTETI
“BANK ISHI” KAFEDRASI**

MADRAIMOV MUSLIMBEK OYBEK O‘G‘LI

**“TIJORAT BANKLARINI QIMMATLI QOGOZLAR BILAN
AMALGA OSHIRILADIGAN EMISSION OPERATSIYALARI”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

5230700-“Bank ishi” bakalavriat ta'lim yo'nalishi

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

**Kredit-iqtisod fakulteti
dekani**

_____ i.f.n., dots. Saidov R.

“ ____ ” _____ 2017 y.

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

**“Bank ishi” kafedrası
Mudiri**

_____ i.f.n., dots. Saidov D.A.

“ ____ ” _____ 2017 y.

Bitiruvchi:

5230700 – “Bank ishi” ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi
Madraimov Muslim Oybek o‘g‘li

Ilmiy rahbar:

Ernazarova M.S. _____

TOSHKENT – 2017

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
1-BOB	TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAGI EMISSION OPERATSIYALARINING IQTISODIY VA HUQUQIY ASOSLARI.....	8
1.1.	Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklari operatsiyalarining iqtisodiy mazmuni va ahamiyati.....	8
1.2.	Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan emission operatsiyalari va uning huquqiy asoslari.....	20
	1-bob bo'yicha xulosa	28
2- BOB	TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN AMALGA OSHIRADIGAN EMISSION OPERATSIYALARI TAHLILI.....	29
2.1	Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalari tahlili.....	29
2.2.	Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiradigan emission operatsiyalari holati tahlili.....	43
	2-bob bo'yicha xulosa	52
3- BOB	TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAGI EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	53
3.1.	Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq emission operatsiyalarni rivojlantirishdagi mavjud muammolar.....	53
3.2.	Qimmatli qog'ozlar bozorida banklar faoliyatini takomillashtirish yo'llari.....	59
	3-bob bo'yicha xulosa	66
	XULOSA VA TAKLIFLAR.....	73
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	75

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Bozor iqtisodiyoti davrida iqtisodiy jarayonlarni yanada modernizatsiyalash va banklarning investitsion faoliyatini yanada oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar bozori davlat moliya tizimini tashkiliy qismi bo'lib, industrial va tashkiliy–funktsional o'ziga xosligi bilan harakterlanadi. Ko'p mamlakatlarning fond bozorlarida banklar asosiy rol o'ynaydilar. Banklarning investitsion operatsiyalarini rivojlantirishda qimmatli qog'ozlar bozorining rolini oshirishga tegishli bir qator masalalarni oydinlashtirib beradi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan har tomonlama puxta ishlab chiqilgan iqtisodiy siyosat tufayli tijorat banklarining moliyaviy holati va iqtisodiy natijalari yildan yilga yaxshilanib bormoqda. Xususan, tijorat banklarining kapitallashuvini oshirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 2016-yil yakunlari bo'yicha bank tizimining umumiy kapitali oldingi yildagiga nisbatan 20,2 foizga oshib, qariyb 9,4 trln. so'mni va kapitalning yetarlilik darajasi ko'rsatkichi umumiy qabul qilingan xalqaro standartlardan deyarli 3 barobardan ziyodni tashkil qildi. Bank tizimi barqarorligining yana bir muhim ko'rsatkichi hisoblangan likvidlik darajasi 2016 -yil yakunlari bo'yicha 64,4 foizni tashkil etdi va bu talab etiladigan minimal darajadan 2 barobar ortiqdir. O'tgan yili tijorat banklarining investitsiyaviy faoliyati yana ham kengaydi. Ular tomonidan 2 milliard 500 million dollar yoki 2015-yilga nisbatan 20 foiz ko'p investitsiyalar yo'naltirildi. Jami investitsiyalarning 73 foizdan ortig'i ishlab chiqarish sohasiga va qariyb 40 foizi mashina va uskunalar xarid qilishga sarflandi.¹

Shu o'rinda O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish va uni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib, hozirda uning faoliyat ko'rsatishi uchun tegishli me'yoriy-huquqiy asos va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishiga qaramasdan, milliy fond bozorimiz rivojlanishida jiddiy o'zgarishlar

¹ 2016 yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetary siyosatning 2017 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. <http://cbu.uz/uzc/monetarnaya-politika/doklad-o-monetarnoy-politike/>

kuzatilmayapti. Ayniqsa, qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya institutlarining, xususan, mazkur bozorning to'laqonli va faol ishtirokchisi hisoblangan O'zbekiston banklarining samarali faoliyati ko'zga tashlanmayapti. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 21-dekabrda "Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2454-sonli Qarori talablaridan kelib chiqqan holda, tijorat banklari tomonidan bank ustav kapitalining 15 foizidan kam bo'lmagan qismini xorijiy investorlarga sotish yuzasidan o'tgan davr mobaynida zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2017-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, 21 ta tijorat bankining aksiyalari "Toshkent" respublika fond birjasi listingiga kiritilgan bo'lib, ushbu banklarning qimmatli qog'ozlari muntazam ravishda birjada kotirovka qilinib, ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilib borilmoqda².

Respublikamizda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi mavqeining pastligi banklar jami aktivlarda qimmatli qog'ozlar salmog'ining kichikligi hamda yalpi daromadi tarkibida qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlari salmog'ining juda kamligida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Buning asosiy sabablari sifatida qimmatli qog'ozlar bozorida risklilik darajasining yuqoriligi, kapitalizasiya darajasining kichikligi, qimmatli qog'ozlar likvidlik darajasining pastligi, muddatli qimmatli qog'ozlar bozorining yo'qligi, banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini tartibga soluvchi hamda investorlar huquq va manfaatlarini kafolatlovchi ayrim me'yoriy-huquqiy asosining takomillashmaganligi va hokazolar bilan izohlash mumkin.

Shuningdek, O'zbekiston banklarining aksariyati mamlakat moliya bozorining mablag'larga muhtoj soxalarini moliyalashtirishda sekin kirib bormoqda, natijada uning ulkan ijtimoiy-siyosiy salohiyati iqtisodiy islohotlarni chuqurlashuviga sezilarli darajada ta'sirini o'tkaza olmayapti.

Mazkur muammolarni hal qilish yo'lida banklar yirik moliyaviy resurslarga va investitsiyalashning qulay texnologiyalariga ega bo'lishi kerak. Buning uchun

²www.uzse.uz ("Toshkent" Respublika fond birjasi sayti ma'lumoti).

banklarning investitsion siyosati yetarli darajada rivojlanishi lozim. Banklar moliya bozorida ulkan imkoniyatga ega ekanligi hamda asosiy qimmatli qog'ozlarning emissiya qilish imkoniyatini va investitsion faoliyatni rivojlantirish, qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyat yuritishini o'rganish muhimdir. Qimmatli qog'ozlar bozori bozor iqtisodiyoti asosida tashkil qilingan moliya tizimining tarkibiy qismi bo'lib, u ham yuridik, ham jismoniy shaxslarning bo'sh turgan moliyaviy resurslarini iqtisodiyotning kerakli sohalariga yo'naltirishga va buning natijasida moliya bozorining boshqa segmentlarini to'ldirishga asoslangan. Banklar bir vaqtning o'zida qimmatli qog'ozlar bozorida emitentlar, investorlar va vositachilar sifatida gavdalanadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli 2017 yil 7-fevraldagi Farmoni davlatimiz va jamiyatimiz, qolaversa, iqtisodiyotimiz rivojida muhim o'rin tutadi.

Ushbu farmonning uchinchi ustuvor yo'nalishida iqtisodiyotimizni, qolaversa, bank tizimini yanada isloh qilishning mexanizmi ishlab chiqilgan ya'ni, kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin mablag'larini joylashtirishning muqobil manbai sifatida moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi moliya bozorini o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolida rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va boshqalar belgilab berilgan³.

Mamlakatda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi avvalambor, uning ishtirokchilariga yuqori foyda olib kelsa, boshqa tomondan uning likvidligini ta'minlashga xizmat qiladi. Lekin ushbu bozorni doimiy nazorat qilish, spekulyativ operatsiyalarni oldini olish hozirgi kun uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Ushbu bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib, bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklarining qimmatli

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017-yil 7-fevral.

qog'ozlar bozoridagi operatsiyalarini iqtisodiy-xuquqiy asoslarini o'rganish, ushbu bozorda banklar faoliyatini tahlil qilish va tegishli xulosalarni shakllantirish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Tijorat banklarni qimmatli qog'ozlar bilan investitsion operatsiyalarining ahamiyatini yoritib berish, xususan banklarning fond bozoridagi operatsiyalarini shakllanishining amaliy – nazariy asoslarini va xorij tajribasini o'rganish, ularni faoliyat ko'rsatishini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflarni ishlab chiqish hisoblanadi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi.

- tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan investitsion, emission operatsiyalarining iqtisodiy-xuquqiy asoslarini o'rganish;
- qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklari faoliyatining turlari va vazifalarini tasniflash;
- tijorat banklarining investitsiya faoliyatida qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiradigan operatsiyalari holatini tahlili;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faolligini oshirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish istiqbollari.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy asoslari. Bitiruv malakaviy ishining nazariy asosi bo'lib tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini amalga oshirish borasidagi Qonunchilik hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari, yetakchi milliy va xorijiy mutaxassislarning ishlari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida olingan xulosalarning amaliyotda qo'llanilishi tijorat banklarini qimmatli qog'ozlar

bozoridagi faoliyatini yanada rivojlanishida va banklar likvidliligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklari operatsiyalarining iqtisodiy mazmuni va ahamiyati, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarining huquqiy asoslari, xorij tajribasi yoritib berilgan. Ikkinchi bobida esa tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan investitsion va emission operatsiyalarining amaliy tahlili keltirilgan. Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan investitsion operatsiyalarini rivojlantirish masalalari, umumiy xulosa va takliflar keltirilgan.

1- BOB. TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAGI EMISSION OPERATSIYALARINING IQTISODIY VA HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida emission operatsiyalarining iqtisodiy mazmuni va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bozori bozor iqtisodiyoti tizimining moliyaviy mexanizmi bo'lib aholi va xo'jalik subyektlarini vaqtincha bo'sh mablag'larining aylanishiga keng imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, qimmatli qog'ozlarning har bir egalari u fuqaro yoki yuridik shaxs bo'lishidan qat'iy nazar tadbirkorlar harakatiga taalluqli shaxs bo'lib qoladi. Ushbu bozorga kirishda motivatsiya mexanizmlari, turtkilari bo'lib iqtisodiy o'zgarishlar, siyosiy masalalarning hal qilinishi, qimmatli qog'ozlarning kurs qiymati dinamikasi, tijorat banklarini fondlarining miqdori, qimmatli qog'ozlar bo'yicha taklif etilayotgan foydaning miqdorlari xizmat qiladi.

Hammaga ma'lumki, tijorat banklarining nisbatan fundamental vazifasi ayni davrda ortiqcha pul mablag'lariga ega bo'lgan iqtisodiyotning bir subyektlaridan, qo'shimcha moliyalashtirishga talabi bor, iqtisodiyotning boshqa subyektlariga pul mablag'larini qayta taqsimlashdan iboratdir. Shunday ekan, banklar pul mablag'larini jalb qilib, o'zlariga ishlatish uchun emas, balki oxir oqibatda iqtisodiyotning boshqa subyektlari tomonidan ishlatilishiga vositachilik qiladilar. Bunda banklar mijozlar topshirig'i bilan ularning pul mablag'larini joylashtiruvchi vositachi sifatida gavdalanmasdan, balki mustaqil hal qiladilar. Bank vositachilarning maxsus turiga kirib, mablag'larni jalb qiladi va o'ziga majburiyat yaratib oladi. Lekin, bankdan shu pul mablag'larini olgan mijozning o'z majburiyatini bajarish–bajarmasligiga qaramasdan, bank o'zining boshqa mijozlar oldidagi majburiyatini bajarishi shartdir.

Iqtisodiyotdagi mablag'larni qayta taqsimlovchi boshqa moliyaviy institutlardan banklarning mohiyatan olib qaraganda farqi uning pul mablag'larini jalb qilish usulidadir. Masalan, investitsion fondlar o'z mijozlarining qo'yilmalari

uchun foizlar to'lovini kafillamaydilar, chunki foizli to'lovlar investitsion fond faoliyatining natijasiga bog'liqdir. Ayrim paytlarda uning faoliyati natijasiz yoki salbiy natija bilan yakunlanishi mumkin. Shunga o'xshash hollar pension fondlarida ham uchraydi. Bank esa depozitlarni jalb qilar ekan, moliya bozoridagi operatsiyalarining taqdiri qanday bo'lishiga qaramasdan, oldindan foiz stavkalarini qat'iy o'rnatib, depozit bo'yicha yoziladigan daromadni kafolatlab qo'yadi.

Tijorat banklari investitsiyasi deganda, bir tomondan tijorat banklarining barcha foyda olish maqsadida joylashtirilgan resurslari tushunilsa, ikkinchi tomondan bu joylashtirilgan mablag'larning muddati bo'yicha ajratilgan bir qismi tushuniladi. Bu yo'nalishlar bir-biri bilan chambarchas bog'liqlikda bo'lib, banklar o'z kapitali, aholi jamg'armalari va boshqa bo'sh pul mablag'larini jamlab o'z resurslarini yaratadilar va ularni foydali maqsadlarda joylashtiradilar. Mablag'larni jamlash operatsiyalarining hajmi va tarkibi banklarning kredit va investitsiya portfeli holatini belgilaydi hamda investitsiya faoliyatiga ta'sir qiluvchi asosiy omil hisoblanadi.

Shunday qilib, tijorat banklari investitsiya faoliyati ikki tomonlama ko'rinishga ega. Birinchi galda banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi iqtisodiy sub'ekt sifatidagi faoliyati bank daromadlarini oshirishga, aktivlarining diversifikatsiyasini oshirish orqali ularning risklilik darajasini kamaytirishga qaratilgan bo'lsa ikkinchi o'rinda banklar qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatining makroiqtisodiy samarasi nafaqat bank kapitali balki butun jamiyat kapitali oshishiga olib keladi va bank qo'yilmalarining ishlab chiqarishga yo'naltirilganligini ifodalaydi.

Shunday qilib, banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari bo'yicha mulohazalarimizni jamlagan holda aytish kerakki, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatning yangi, o'ziga xos alohida yo'nalishi–banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati paydo bo'lmoqda. Bankning mohiyati va uning o'ziga xos funksiyalari banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishiga nazariy tarafdin

to'g'ri keladi. Chunki banklar pul mablag'lari bilan operatsiyalarni amalga oshiradi. Qimmatli qog'ozlar esa pul mablag'larining nusxa ko'rinishidir, ya'ni fiktiv kapitallardir. Bank tomonidan pul mablag'larini harakatga keltirishi natijasida uning mahsuloti yaratiladi–pulning ikkiga ko'paytmasi. Aynan shu ko'paytmasi, qimmatli qog'ozlar ko'rinishida ham o'z ifodasini topadi.

O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonunning 1-moddasida bankka shunday ta'rif berilgan; “Bank –tijorat tashkiloti bo'lib, yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish, to'lovlarni amalga oshirish kabilar bilan shug'ullanuvchi yuridik tashkilotdir”⁴. Ushbu mazmundagi ta'rifni boshqa adabiyotlarda ham uchratishimiz mumkin.

Ta'rifda belgilab o'tilgan – “...yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish...” ko'rsatmasi banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar olib borishidagi nazariy, ham huquqiy asos deb ayta olamiz. Chunki bank iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larini jalb qilib, uning evaziga omonatchilarga qimmatli qog'ozlarni topshiradi. Bu aksiyalar, obligatsiyalarlar, depozit sertifikatlar va boshqalardir. Keyingi ko'rsatmasi – “...qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish...”, bu yerda banklar qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish evaziga yig'ilgan mablag'lardan kreditlar beradi yoki boshqa ob'ektlarga (boshqa qimmatli qog'ozlarga ham bo'lishi mumkin) investitsiya qiladi. “... to'lovlarni amalga oshirish...”, –bu yerda ham banklar vositachilik operatsiyalaridan tashqari qimmatli qog'ozlar bo'yicha foiz, dividend va boshqa to'lovlarni amalga oshirishi mumkin.

Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, bankka berilgan ta'rifdagi barcha ko'rsatmalar banklarning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiradigan ham

⁴ Butikov I. “Qimmatli qog'ozlar bozori” T: “Konsauditinform” 2001 y. , 247-b

emission, ham investitsion, qolaversa to'lovlarni amalga oshirishda vositachilik operatsiyalarini nazariy asosini tashkil qiladi.

“Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunga binoan tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida quyidagi:

- qimmatli qog'ozlar(veksel, aksiya, obligatsiyalarlar, depozit sertifikatlar va boshqalar)ni chiqarish;
- qimmatli qog'ozlarni sotib olish, sotish, saqlash, ular bilan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish;
- tovar yetkazib berish va xizmat ko'rsatishdan kelib chiqadigan talab huquqini olish, bunday talablarni inkassasiya qilish;
- mijozlar ishonib topshirgan operatsiyalarni: mablag'larni jalb etish va joylashtirish va qimmatli qog'ozlarni boshqarish va hokazo ishlarni bajarish;
- fond bozori ishtirokchilariga bu borada bank faoliyati yuzasidan maslahatlar berish kabi operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin⁵.

Banklarda investitsiya portfelini boshqarish hamda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan strategiyani ishlab chiqish banklarning investitsiya portfelini boshqarishda muhim hisoblanadi. Banklarning investitsion faoliyatidan asosiy maqsad kapitalni ko'paytirish va uni likvidli shaklda saqlanishini, barqaror faoliyati hamda amalga oshirilayotgan operatsiyalarining daromadlilikini ta'minlashdan iboratdir. Bu faoliyat bilan shug'ullanish bankning o'sib borayotgan moliyaviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida sarmoyalarning samarali yo'nalishlarini belgilab beradi. Investitsiyalarni amalga oshirishning maqsadi - sarmoyalarni xavfsiz investitsiya qilgan holda tegishli foyda olish hamda bankning joriy pul sarmoyalari hisobiga foyda olishga bo'lgan ehtiyojlarini kelgusida qondirishdan iboratdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatdan asosiy maqsadlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

⁵ Sh. Abdullaeva “Bank ishi” darslik, Toshkent, Toshkent Moliya instituti 2003

➤ qimmatli qog'ozlar chiqarish asosida kredit va hisob-kitob faoliyati yuritish uchun qo'shimcha pul resurslarini jalb qilish;

➤ qimmatli qog'ozlarga sarflangan va o'z investitsiyalaridan bankka to'lanadigan foiz va dividendlar evaziga va qimmatli qog'ozlarning kurs qiymati oshishi tufayli foyda olish;

➤ mijozlarga qimmatli qog'ozlar operatsiyalariga doir xizmatlar ko'rsatishdan foyda olish;

➤ erkin raqobat asosida bankning xizmat sohasini kengaytirish hamda korxona va tashkilotlarning kapitallarida qatnashish evaziga yangi mijozlarni jalb qilish;

➤ bankning qimmatli qog'ozlari orqali resurslarni jalb qilish va ulardan foydalanish;

➤ bankning likvidli mablag'lariga qo'yilmalarning daromadlilikini ta'minlagan holda likvidlik zaruriy zahirasi saqlab borish;


➤ mijozlarning qimmatli qog'ozlarni olib-sotishdan hamda moliyaviy risklarni qimmatli qog'ozlar hosilalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar orqali sug'urta qilish kabilarni keltirish mumkin.

O'zbekiston qimmatli qog'ozlari bozorida birinchilardan bo'lib tijorat banklarining aksiyalari paydo bo'lgan.

Keyingi yillarda banklarning investitsion faoliyati quyidagi nufuzli yo'nalishlarga qaratilgan: yirik aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini boshqarish, investitsiya va xususiylashtirish fondlari bilan ishlash.

O'z aksiyalarini chiqarib, tijorat banklari asosan aksiyadorlik jamiyati sifatida faoliyat ko'rsatadi. Obligatsiyalar jamg'arma va depozit sertifikatlari chiqarib, tijorat banklari mamlakatdagi pul aylanmasini to'ldirib, yuridik hamda jismoniy shaxslarni bo'sh pul mablag'larini joylaydilar va ularni iqtisodiyotni ustuvor sohalariga investitsiyalaydilar.

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya institutining professional qatnashchisi sifatida ishtirok etadi va emissiya brokerlik, dilerlik faoliyatini bajaradi, qimmatli qog'ozlar bilan savdoni tashkil qiladi.



1-rasm. Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar turlari.⁶

Bankning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiradigan barcha operatsiyasidan bosh maqsad – bu foyda olishdir. Bu maqsad bir qator omillar bilan cheklanadi:

- risk ehtimoli;
- vaqtlar cheklovi;

⁶ Nosirov E.I. "Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining rolini oshirish masalalari". Avtoreferat i.f.n. O'zb.RBMA-T. 2003 yil 25-bet.

- portfel likvidligiga talablar;
- soliq bilan bog'liq omillar.

Bankning investitsiya strategiyasi maqsadlarni uyg'unlashuvi asosida yaratiladi. Ya'ni:

- qimmatli qog'ozlar emissiyasi asosida an'anaviy investitsiya faoliyati uchun qo'shimcha pul mablag'larini jalb qilish;

- mablag'larni qimmatli qog'ozlarga investitsiyalashdan bankka to'lanadigan foizlar va dividendlar hamda qimmatli qog'ozlarni kurs bo'yicha qiymati o'sishi hisobiga foyda olish;

- bank ta'sir ko'rsatish doirasini raqobatni kengaytirish hamda korxonalar va tashkilotlar jamg'armasida qatnashish hisobiga mijozlarni jalb qilish;

- bankni likvid mablag'lariga qo'yilmalar daromadligini ta'minlagan holda likvidlikni kerakli zahirasini ushlab turish;

- qonunchilik bilan ruxsat etilgan qo'shimcha xizmatlarni amalga oshirishdan foyda olish.

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bo'yicha investitsiya portfelini shakllantirishda quyidagilarga e'tibor berishlari kerak:

1. Qo'yilmalarning xavfsizligi (investitsiyalarni jamg'arma bozorida tebranishlarga mustahkamligi);

2. Daromad olishning barqarorligi;

3. Qo'yilmalarning likvidligi, ya'ni ularni tovarni (bajarilgan ish, xizmat)ni tezkor sotib olishda qatnashishga qobiliyatligi yoki tezkor va yo'qotishlarsiz naqd pulga aylanishi.

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya faoliyatini tashkil etishda quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilishi lozim:

- mutaasiblik tamoyili;
- qo'yilmalarni diversifikatsiyalash tamoyili;
- yetarli darajada likvidlik tamoyili;
- risklarni xedjirlash;

- emitetlarning shaffofligini ta'minlash tamoyili.



2 -rasm. Investitsiya faoliyatini tashkil etish tamoyillari⁷

Mutaasiblik tamoyili - yuqori ishonchli va riskli ulushlarning o'zaro nisbati shunday ushlab turilishi kerakki, riskli ulushdan ehtimoliy yo'qotishlar ishonchli aktivlardan olingan daromadlar bilan qo'llanish ehtimoli yuqori bo'lishi kerak.

Bankning qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish va amalga oshirayotgan investitsiyalarining maqsadi hamda vazifalariga aniqlik kiritish hamda investitsiyalarni amalga oshirishga to'g'ri keladigan moliyaviy instrumentlar doirasini belgilash va shu orqali investitsiya portfelining sifat tarkibini yaxshilash bank investitsiya siyosatida belgilab beriladi.

Banklarning investitsiya siyosatini asosiy maqsadlariga quyidagilar kiradi:


- tijorat bankining uzoq muddatli istiqbolda samarali faoliyatini ta'minlaydigan jamg'arma o'sishining yuqori sur'atlariga erishish;
- bank daromadi o'sishining yuqori sur'atlarini ta'minlash. Investitsiya faoliyatini amalga oshirish katta moliyaviy resurslarni, shu jumladan qarzga olinganlarini ham safarbar qilinishini talab qilgani sababli, tijorat banki investitsiya portfelini shakllantirish paytida unga doimiy to'lovga qobillikni ta'minlaydigan

⁷ Manba: Yuldoshev F.M. "Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini faollashtirish masalalari". Avtoreferat i.f.n. O'zb.RBMA. –T. 2013 yil 5-bet.

yuqori darajali joriy daromadli loyihalarni kiritish lozim. Bundan tashqari, joriy daromadlarning bir qismi investitsiya faoliyati optimal tuzilmasini saqlab turish maqsadida jamg'armalashtirilishi mumkin;

➤ bank investitsiya risklarini minimallashtirilishini ta'minlash. Daromad o'sishining yuqori sur'atlarini ta'minlaydigan alohida olingan investitsiya dastaklari, yuqori darajali risklarga ega bo'lishi mumkin.

➤ biroq investitsiya portfeli doirasida bu daraja investitsiya faoliyatining alohida yo'nalishlari miqyosida minimallashtirilishi lozim. Bank investitsiya portfeli bo'yicha risklarning umumiy darajasini minimallashtirish jarayonida asosiy e'tibor jamg'armani yo'qotish riskini minimallashtirishga qaratiladi.



3-rasm. Banklarning qimmali qog'ozlar bilan operatsiyalarini tasnifi⁸

⁸ Nosirov E.I. "Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining rolini oshirish masalalari". Avtoreferat i.f.n. O'zb.RBMA-T. 2003 yil 25-bet.

➤ Bundan tashqari, investitsiya portfelini bo'yicha risk nazoratga olingan bo'lishi kerak;

➤ tijorat banklarining investitsiya faoliyati likvidligini yetarli darajasini ta'minlash. Investitsiya portfelini samarali boshqarilishiga erishish, jamg'armani nisbatan foydali investitsiya dastaklariga tez fursatda qayta investitsiyalash imkoniyatlarini ta'minlash uchun investitsiya portfelining ma'lum qismi yuqori likvidli xarakterga ega bo'lishi lozim. Investitsiya portfelining likvidlik darajasi davlatning investitsion iqlimi, investitsiya bozori konyunkturasining jo'shqinligi hamda banklar investitsiya faoliyatining o'ziga xos xususiyati bilan belgilanadi.

Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarni amalga oshirish bankka o'z aktivlarini diversifikatsiya qilish hamda shu orqali xavf-xatar darajasini kamaytirish, bankning layoqatli daromadlarini oshirish imkoniyatlarini beradi. Bu esa o'z navbatida omonatlarga jalb qilingan mijozlar sarmoyalarini bank tomonidan investitsiyalarga samarali joylashtirish orqali iqtisodiyotdagi makroiqtisodiy jarayonlarni rivojlantirishga olib keladi.

Investitsiyalarni amalga oshirishda korxona faoliyatining monitoringini olib borish uchun bank yetarli tajribaga ega bo'lishi kerak, chunki investitsiyalar amalga oshirilganda ular bilan bog'liq xavf-xatarlar paydo bo'ladi. Xavf-xatarlarni to'g'ri baholash va ularni bartaraf etish uchun bank o'z hodimlarini malakasini oshirish va bu bo'yicha xorij tajribasini o'rganish kerak.

Har qanday mamlakatning qimmatli qog'ozlar bozorida bank roli oshishining asosiy omili bo'lib—o'sha mamlakat xo'jalik subyektlarining moliya resurslari bilan keng doirada foydalanishini ta'minlovchi, hamda yuqori innovatsion—investitsion faoliyati va ularning moliyaviy risklarini sug'urtalash uchun qo'shimcha imkoniyatlarni ta'minlab beruvchi zamonaviy va sifatli bank xizmatida bo'lgan talabining yil sayin oshib borayotgani hisoblanadi.

Barcha mamlakatlarda hozirgi davrga kelib tijorat banklarining investitsion faoliyati va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalaridan tushayotgan daromadlari foydaning shakllanishida tobora sezilarli rol o'ynamoqda.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyat shakllarini kengayishi va diversifikatsiyalanishi tijorat banklari boshchiligidagi yirik moliya-bank gruppalarining tashkil bo'lishiga olib keldi. Ular o'z atrofida investitsion fondlar, brokerlik firmalari, trust kompaniyalar, konsultatsion firmalar va hokazolar kabi nisbatan mustaqil tarkibiy bo'linmalarning yuzaga kelishiga sababchi bo'ldi.

Investitsiyalarni amalga oshirishning quyidagi shakllari mavjud:

➤ yuridik shaxslarni tuzish yoki ularning ustav fondlari (kapitallari)da ulushi bilan ishtirok etish, shuningdek kompaniyalar aksiyalarini sotib olish orqali;

➤ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18-noyabrdagi "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4053-sonli Farmoniga asosan belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida bankning investitsion faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoring qilish bosh boshqarmasi tomonidan:

a. bankrot deb e'lon qilingan ishlab chiqarish korxonalarini auktsion va tanlov savdolarida mulk sifatida sotib olish;

b. bank mulkiga o'tgan bankrot korxonalar negizida bankning sho'ba korxonasini tashkil qilish va uni samarali boshqarish;

c. bankrot korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va qayta tiklash, ularni texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalash hamda qaytadan jihozlashni ta'minlash, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha investitsiya majburiyatlarini qabul qilish;

d. keyinchalik korxonalarni strategik investorlarga bozor qiymatida sotish yuzasidan bank boshqaruvi organlari tomonidan tasdiqlangan dasturga muvofiq chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

e. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28-noyabrdagi "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi


to'g'risida"gi PF-4058-sonli Farmoniga asosan belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida:

f. bankning investitsion faolligini oshirishni ta'minlash maqsadida uning kapitalini hamda resurs bazasini muntazam ravishda oshirib borish;

g. jalb qilingan mablag'larni iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlariga eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosadigan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarning ustav fondlarida ulush bilan ishtirok etish uchun investitsiyalarni amalga oshirishga yo'naltirish;

➤ qimmatli qog'ozlarni, jumladan qarz majburiyatlarini sotib olish orqali;

➤ qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa shakl va usullar orqali. Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklari faoliyatining yangi shakli sifatida –u yoki bu moliya aktivlariga kapitalni investitsiya qilish bilan bog'liq qator masalalar bo'yicha konsultatsion xizmatlar ko'rsatish orqali bozorga kirib kelmoqda.



4-rasm. Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati⁹

⁹ Butikov I. "Qimmatli qog'ozlar bozori" T.: "Kons auditinform" 2001 y

Konsultatsion xizmatlar ko'rsatish turli aktivlarning daromadi va risklari o'rtasidagi o'zaro ta'sirini chuqur tahlil qilish hamda mijozlar uchun qimmatli qog'ozlarni sotib olish algoritmi va qimmatli qog'ozlar portfelini uning daromad dinamikasini hisobga olgan holda shakllantirish kabilarni amalga oshiruvchi bankning ichki informatsion tizimiga tayanadi.

Aytib o'tganimizdek, tijorat banklari o'z aksiyalari, obligatsiyalarlari, veksellari, depozit sertifikatlari va boshqa qimmatli qog'ozlari bilan emitent sifatida, shuningdek o'z hisobidan qimmatli qog'ozlar sotib oluvchi investor sifatida gavdalanadi. Qolaversa, komission rag'batlantirish evaziga qimmatli qog'ozlar bilan vositachilik operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga egadir.

1.2. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari va uning huquqiy asoslari

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi hamda fond birjalari faoliyatini tartibga solish va rivojlantirish maqsadida 1993-yil 2-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar va fond birjalari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Keyinchalik 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf etish maqsadida ushbu qonunning yangi taxriri qabul qilindi.

Qimmatli qog'ozlar bozorini infratuzilmaviy rivojlantirishda ilk qadamlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 15 martdagi "O'zbekiston Respublikasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-789-sonli qaroriga asosan "Toshkent" respublika Fond birjasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 8 iyundagi "Toshkent" Respublika fond birjasining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash va qimmatli qog'ozlar bozori infrastrukturasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 285-sonli Qaroriga asosan "Vaqt" depozitariysini tashkil qilinishi bilan bog'liq bo'lgan.

1996 yil 25 aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi va 1996- yil 26 -aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faolligini ortib borishini ta’minladi.

Shuningdek, 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozorining faoliyat ko‘rsatish mexanizmi to‘g‘risida”gi Qonunida esa depozitar va reestr yuritishga doir professional faoliyat yuritishning asoslari belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri–respublika qimmatli qog‘ozlar bozorida tijorat banklarining emission va investitsion faoliyatini nazorat qilish va tartibga solishdir. Qolaversa, bank qimmatli qog‘ozlarini ro‘yxatga olish, qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish hamda qimmatli qog‘ozlarni emissiyasi va muomalasini tashkil qilish borasida tijorat banklariga konsultatsion yordam ko‘rsatishdek vazifalar ham markaziy bank faoliyati yo‘nalishiga kiradi.

Har qanday mamlakatda davlat to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita u yoki bu shaklda qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soladi. Qimmatli qog‘ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solish ularni qonuniyligini ta’minlashdan tashqari, qimmatli qog‘ozlar chiqarish va muomalasini yo‘lga qo‘yish, yangi chiqarilganlarni ro‘yxatdan o‘tkazish, qimmatli qog‘ozlar bozorida kasb faoliyatini litsenziyalash, investorlar huquqini himoyalash, yakkahokimlik haqidagi qonunchilikka rioya qilishni nazorat qilish, bahoni barpo qilish tizimini va malakali bozor ishtirokchilarini faoliyatlarini nazorat qilishni o‘z ichiga oladi.

Respublikamizda tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarini amalga oshirishning huquqiy bazasi shakllangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolik kodeksi”, “O‘zbekiston

Respublikasining Markaziy banki to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida", "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 27-sentyabrdagi "Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 30-avgustda ro'yxatdan o'tkazilgan "Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish" Qoidolari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009 yil 5 fevralda ro'yxatdan o'tkazilgan "Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni birga qo'shib olib borishga doir cheklashlar va birga qo'shib olib borish tartibi, qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining majburiy normativlar tizimi to'g'risida"gi Nizom, Markaziy bank Boshqaruvining 2008 yil 13 dekabrdagi 28/4-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Yo'riqnoma, Markaziy bank Boshqaruvining 2008 yil 27 dekabrdagi 30/2-sonli Qaroriga asosan "Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalarga va ularning boshqa korxonalar ustav kapitalida qatnashishiga qo'yiladigan talablar to'g'risida" gi Nizomlari bunga misol bo'la oladi.

Markaziy bank, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga qilgan investitsiyalarida uchraydigan risklardan, ularni moliyaviy barqarorligini himoya qilish maqsadida ma'lum talablar va me'yorlar o'rnatadi. Shu maqsadda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha Markaziy bank Boshqaruvining 2008-yil 27-dekabrdagi 30/2-sonli Qaroriga asosan "Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalarga va ularning boshqa korxonalar ustav kapitalida qatnashishiga qo'yiladigan talablar to'g'risida" gi Nizomi ishlab chiqilgan. Unda yozilishicha, Markaziy bank, tijorat banklarining har qanday emitentning qimmatli qog'ozlariga

qilinadigan investitsiyalari hajmiga chegaralar oʻrnatish huquqiga egadir. Ular quyidagilar:

- bankning muayyan yuridik shaxs ustav kapitaliga, shuningdek, ushbu yuridik shaxsning boshqa qimmatli qogʻozlariga kiritgan investitsiyalari miqdori birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak;

- bankning yuridik shaxslar ustav kapitaliga va boshqa qimmatli qogʻozlarga kiritgan investitsiyalari miqdori birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 50 foizidan oshmasligi kerak;

- oldi-sotdi uchun qimmatli qogʻozlarga kiritilgan bank investitsiyalari miqdori birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak.

Markaziy bank tijorat banklari tomonidan yuqoridagi chegaralanishlarga amal qilishini doimiy monitoringini olib boradi va zarur paytlarda kerakli choralar koʻradi.

Tijorat bankining boshqa banklarning ustav kapitalida ishtirok etishi (chet el kapitali ishtirokidagi banklar va shoʻba banklarini tashkil etish hollari bundan mustasno), shuningdek tijorat bankining oʻz ustav kapitalining oʻn yoki undan ortiq foiz ulushiga ega boʻlgan yuridik shaxsning ustav kapitalida ishtirok etishi taqiqlanadi.

Tijorat banki bevosita yoki bilvosita (shoʻba korxonalar orqali) boshqa yuridik shaxs ustav kapitalining 26 foizidan ortiq qismiga egalik qila olmaydi, biroq quyidagi holatlar bundan mustasno:

- banklarning sugʻurta va lizing tashkilotlari ustav kapitalidagi ishtiroki;
- banklarning nobank kredit tashkilotlari ustav kapitalida, shuningdek, moliyaviy bozor infratuzilmasining bir qismi boʻlgan yoki banklarga axborot va maslahat xizmatlari koʻrsatadigan yuridik shaxslar ustav kapitalidagi ishtiroki;
- banklarning qimmatli qogʻozlar bozorida professional faoliyat yuritadigan yuridik shaxslar (tijorat banklarining ustav kapitalidagi ishtiroki bundan mustasno) ustav kapitalidagi ishtiroki;

➤ xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalarining 50 foizgacha miqdorini oʻrnatilgan tartibda birlamchi bozordan xarid qilishdagi ishtiroki;

➤ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi “Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF–4053-sonli Farmoniga muvofiq auksion va tanlov savdolarida tijorat banklariga mulk sifatida sotib olingan yoki Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 19-noyabrdagi F–4010-sonli Farmoyishi bilan tasdiqlangan “Auksion va tanlov savdolarida iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish tartibi”ga muvofiq xoʻjalik sudlari hal qiluv qarorlariga asosan likvidatsion qiymati boʻyicha kreditor bank balansiga olingan bankrot ishlab chiqarish korxonalari mulklari negizida tashkil etilgan korxonalar hamda bank investitsiyalarini boshqarish uchun taʼsis etiladigan boshqaruv kompaniyalari ustav kapitalidagi ishtiroki.

Tijorat banklari muayyan yuridik shaxs ustav kapitalining 26 foizidan ortiq ulushini sotib olishda yoki bankning bevosita yoki bilvosita mazkur yuridik shaxs faoliyatiga katta taʼsir koʻrsatish imkonini beruvchi shartnoma tuzishda, Markaziy bankka yozma xabar berishlari shart.

Tijorat banklariga, emitent — aksiyadorlik jamiyatlari bilan ushbu jamiyat aksiyalari boʻyicha “repo” bitimlarini amalga oshirish taʼqiqlanadi.

Agar tijorat bankining investitsiya qilingan yoki investitsiya qilinishi rejalashtirilayotgan mablagʻlari miqdori yoki emitent faoliyati tijorat banki omonatchilari, kreditorlari va aksiyadorlari manfaatlariga zarar etkazishi mumkinligi yoki investitsiyalarni boshqarishda tijorat bankining tajribasi yetarli emasligi aniqlansa, markaziy bank har qanday yuridik shaxsning ustav kapitali yoki qimmatli qogʻozlariga tijorat banki tomonidan kiritiladigan investitsiyalar miqdoriga qoʻshimcha cheklovlar belgilash huquqiga ega.

Garov huquqini amalga oshirish natijasida olingan qimmatli qogʻozlar bank tomonidan 2 oy muddat ichida sotilishi shart. Agar, qimmatli qogʻozlar koʻrsatilgan muddatda sotilmasa, ular “sotishga moʻljallangan qimmatli

qog'ozlarga qilingan investitsiyalar" yoki "qaram xo'jalik jamiyatlariga, qo'shma korxonalarga va sho'ba xo'jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalar" yohud "so'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar"ning tegishli hisobvaraqlariga o'tkaziladi va ularga nisbatan qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda cheklovlar qo'llaniladi.

Markaziy bank Boshqaruvining 2008 yil 13 dekabrda 28/4-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi Yo'riqnomaga asosan, banklar andarrayting operatsiyalarini, ya'ni qimmatli qog'ozlarni ularning birinchi egalari sotish bo'yicha (emissiyani dastlabki joylashtirilishi) operatsiyalarini bajarishi hamda emitent topshirig'iga ko'ra qimmatli qog'ozlarni so'ndirish operatsiyalarini amalga oshirishi mumkin.

"Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish" Qoidalarida ko'rsatilganidek tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlarni chiqarish shartlari va hajmlarini kelishish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi.

➤ bank qimmatli qog'ozlar chiqarilishini kelishish uchun ustav (ustavga o'zgartish va qo'shimchalar) ro'yxatga o'tkazilgan kundan boshlab bir oy mobaynida qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorning to'rt nusxasini va mazkur Qoidalar talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan risolaning to'rt nusxasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga taqdim etadi.

➤ qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror va risolani kelishish, hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga kelib tushgan kundan boshlab o'ttiz kundan kechiktirmasdan amalga oshirilishi lozim.

➤ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qimmatli qog'ozlar chiqarishning shartlari va hajmlariga rozi bo'lganda bankka alohida tikilgan, muhr bosilgan, kelishish sanasi ko'rsatilgan holda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan qimmatli qog'ozlar chiqarish to'g'risidagi qaror uch nusxada va risola uch nusxada beriladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 15 yanvardagi “Bank tizimini isloh qilish choralari to‘g‘risida”gi Qaroriga binoan banklar, yangitdan ro‘yxatdan o‘tayotgan banklarning ustav kapitalida ishtirok etishlari ta‘qiqlanadi (ushbu ta‘qiqlanish sho‘ba banklar uchun, hamda chet el kapitali ishtirokida tashkil qilinayotgan banklar uchun taalluqli emas). Shuningdek banklar 2001 yilning 1 yanvarigacha bo‘lgan muddatda boshqa banklarning ustav kapitallaridagi aksiya paketlarini realizasiya qilishlari kerak edi. Bu, birinchi navbatda shu bilan bog‘liq, ediki, banklarning o‘zaro aksiyalariga egalik qilishi, bir–birlarining faoliyatiga aralashuvini kuchayishiga, raqobatning pasayishiga va bank tizimi umumiy kapitallar yig‘indisining sun‘iy ravishda ishirilishiga olib kelishini oldini oladi.

Mamlakatimiz qimmatli qog‘ozlar bozorida tijorat banklarining faoliyatini shartli ravishda uch yo‘nalishga ajratish mumkin: emission, investitsion va vositachilik faoliyatlari. Banklar shu uch yo‘nalishning barchasida o‘z faoliyatini rivojlantirib borishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuniga asosan tijorat banklariga qu‘yidagi faoliyat bilan shug‘ullanishga ruxsat etilgan:

- qimmatli qog‘ozlarni emissiya qilish (veksellar, aksiyalar, obligatsiyalarlar, depozit sertifikatlar va hosilaviy qimmatli qog‘ozlar– fyucherslar, opsiyonlar);

- qimmatli qog‘ozlarni sotib olish, sotish va saqlash, hamda ular bilan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish;

- tovarlarni yetkazib berish va xizmat ko‘rsatishdan kelib chiqqan talab huquqlarini qo‘lga kiritish hamda shu talablarni bajarishda uchraydigan risklarni o‘z zimmasiga olish, shu talab hujjatlari bo‘yicha inkassatsiyani amalga oshirish;

- mijozlarning topshiriqlarini bajarish, ya’ni mablag‘larni jalb qilish va joylashtirish, qimmatli qog‘ozlarni boshqarish va mijozlarning

topshirig'iga binoan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish;

➤ bank faoliyati bilan bog'liq konsultatsion xizmatlar ko'rsatish.

Yuqoridagi faoliyat turlari bilan shug'ullanish uchun tijorat banklariga cheklanishlar qo'yilmaganligi sababli, ular O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida emitentlar, investorlar va vositachilar sifatida ishtirok etadilar.

Qimmatli qog'ozlar bozorida yuritilayotgan siyosatdan kelib chiqib, tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bilan u yoki bu operatsiyalarni amalga oshirishni va qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyat yo'nalishini tanlaydi. Qimmatli qog'ozlar bozorida bank siyosati ko'p maqsadlarni o'zida mujassamlashtirgan holda ishlab chiqadilar. Ularning asosiylari quyidagilar bilan bog'liq:

➤ o'z qimmatli qog'ozlarini emissiya qilish asosida an'anaviy kredit va hisob-kitob operatsiyalari uchun qo'shimcha pul mablag'larini jalb qilish;

➤ banklarning qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish asosida, banklarga to'lanadigan foizlar va dividendlar hamda qimmatli qog'ozlarni kurs baholarining ko'tarilishi hisobiga daromadlar olish;

➤ qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarda mijozlarga turli xizmatlar ko'rsatishdan daromad olish;

➤ korxona va tashkilotlarning kapitallarida ishtirok etish hisobidan bankning ta'sir doirasini raqobatli kengaytirish va yangi mijozlarni jalb qilish;

➤ bank tomonidan tanqis bo'lgan resurslarga erishish imkoniyatini beruvchi qimmatli qog'ozlarni qo'lga kiritishi va shu resurslarni egalariga aylanishi;

➤ qimmatli qog'ozlarni sotib olish orqali qo'shimcha daromadlar olish va mijozlarning moliyaviy risklarini hosilaviy qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari orqali sug'urtalash.

Markaziy bank tomonidan berilgan umumiy bank litsenziyasi, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat yuritish huquqini beradi. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni olib boruvchi

mutaxassislariga qo'yiladigan yagona sharti shundan iboratki, ular Moliya Vazirligi va "Toshkent" respublika fond birjasi tomonidan tashkil qilingan "Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar" maxsus kurslarida o'qib, qimmatli qog'ozlar bozorining mutaxassisi malakasini tasdiqlovchi attestatga ega bo'lishlari kerak.

1-bob bo'yicha xulosa

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, banklar investitsiya faoliyati uchta asosiy yo'nalishga ajratiladi bular banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyati, korporativ moliyalash va loyihaviy moliyalashtirishdir. Mamlakatimiz qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining faoliyatini ham uch yo'nalishga ajratish mumkin: emission, investitsion va vositachilik faoliyatlari. Banklar shu uch yo'nalishning barchasida o'z faoliyatini rivojlantirib borishlari shart. Qimmatli qog'ozlar tushunchasi, banklarning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalari va uning huquqiy asoslari keltirib o'tilgan. Banklar investitsiya faoliyatidan dividend, foiz, komission va qimmatli qog'oz narxi o'zgarishi kabi daromadlar olishlar mumkin. Qimmatli qog'oz daromadi qanchalik yuqori bo'lsa uning riski ham shuncha yuqori bo'ladi, likvidlilik va xavfsizligi esa shunchalik past bo'ladi ya'ni, teskari proporsionaldir. Banklar investitsiya portfeli risk sharoitida qo'yilmalarni likvidlilikini ta'minlash va daromad olish maqsadidagi olingan mavjud qimmatli qog'ozlar majmuidir. Respublikamizda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini amalga oshirishning huquqiy bazasi shakllangan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri-respublika qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining emission va investitsion faoliyatini nazorat qilish va tartibga solishdir. Qolaversa, bank qimmatli qog'ozlarini ro'yxatga olish, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish hamda qimmatli qog'ozlarni emissiyasi va muomalasini tashkil qilish yo'nalishiga kiradi.

2-BOB. TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN AMALGA OSHIRADIGAN EMISSION OPERATSIYALARI TAHLILI

2.1. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalari tahlili

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya hamda investitsiyaviy faolligini oshirishda bank tizimi alohida o'rniga ega. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish, jamiyatni barcha jabhalarini tubdan o'zgartirish yo'liga kirib borishi mamlakat bank tizimini qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatini amalga oshirishga kerak bo'lgan yangi vazifalarni belgilab berdi. Xuddi shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining investitsiya faoliyati banklar uchun yangi imkoniyatlarni va o'z hokimiyati doirasini kengaytirish hamda barqaror daromadni olib, bankni likvidligini ta'minlash istiqbolini ochib berdi.

Tijorat banklarning investitsion operatsiyalari bu –keng ma'noda bankning pul mablag'larini va boshqa rezervlarini qimmatli qog'ozlarga, ustav fondlariga, kolleksiya, ko'chmas mulkga, qimmatbaho toshlar va boshqa ob'ektlarga qo'yilmalari tushuniladi. Qolaversa, o'sib boruvchi va bankga foizlar va dividendlar shaklida daromad keltiruvchi bozor baholariga ham investitsiyalar qilinishini tushunish mumkin. Tijorat banklarining investitsion portfeli (qimmatli qog'ozlar portfeli) bir butun sifatida boshqariladigan qimmatli qog'ozlarga sarflangan sarmoyalar hisoblanib, o'zida har xil turdagi va shakldagi qimmatli qog'ozlarni mujassamlashtiradi. Qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish davomida investor o'z e'tiborini xavfsiz yuqori likvidligi va daromadligi bilan ajralib turgan qimmatli qog'ozlarga qaratiladi. Banklarning investitsion portfeli qimmatli qog'ozlar bozor narxining o'sishi yoki foiz daromadi ko'rinishida foyda keltiradi. Investitsiya portfelini hajmi qanchalik katta bo'lsa, u bilan bog'liq xarajatlar ham katta bo'ladi.

Tijorat banklarining investitsion faoliyatni amalga oshirishining maqsadini aniqlab beruvchi asosiy omillardan biri bu–o‘z aktivlarining ma’lum guruhini likvidli bo‘lishiga ehtiyoji borligidadir.

Likvidlik va daromadlik– bu o‘zaro bog‘liq omillar bo‘lib, Bankning turli xildagi va turli sinflarga kiruvchi qimmatli qog‘ozlarga qilingan qo‘yilmalari vositasida investitsion faoliyat bilan bog‘liq omillardir.

Banklarning investitsion operatsiyalarini huquqiy asosi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, banklarning investitsion faoliyati va umuman bank faoliyatiga taalluqli O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, shuningdek Markaziy bank to‘g‘risidagi qonun va boshqalar hisoblanadi. Bu qonuniy hujjatlar banklarga yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan qo‘yilmalarning barcha turlari bilan shug‘ullanish huquqini beradi. Lekin, shuni ham aytish kerakki, moddiy boyliklarni ishlab chiqarish va savdosi, sug‘urta faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita bog‘liq qo‘yilmalar banklarning funksiyasiga kirmaydi.

Shu bilan birga, banklarning qimmatli qog‘ozlar bilan investitsion operatsiyalari, tijorat korxonalarining kapitallarida banklarning ishtirok etish bo‘yicha tartibni belgilaydigan antimonopol qonunchilik va me‘yoriy hujjatlar bilan belgilanadi (fond va sug‘urta faoliyatlari va boshqalar bo‘yicha xususiylashtirish qonunchiligi, me‘yoriy hujjatlar).

Bank investitsiyalarini boshqarishda likvidlikni, aktivlarning sifati va tarkibi, investitsion operatsiyalar tartibi va uning hisobini yuritish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yo‘riqnomalari va boshqa me‘yoriy hujjatlari muhim rol o‘ynashi kerak.

Yana bir muhim rol o‘ynaydigan hujjatlardan biri bu – soliq qonunchiligidir (soliqqa tortilishda yutuqqa erishish yoki yutqazish, ko‘p hollarda investitsiya ob‘yektini tanlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir).

Qimmatli qog‘ozlar bozorida tijorat banklarning investitsion operatsiyalarini mohiyatiga ko‘ra quyidagi maqsadlar ko‘zlanadi:

- bankning daromad bazasini kengaytirish va diversifikatsiya qilish;

➤ bank tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan faoliyat turlarini kengaytirish hisobiga uning moliyaviy barqarorligini oshirish va bankning umumiy risk darajasini tushurish;

➤ banklarning nisbatan ko‘proq daromad keltiruvchi bozorlarda (birinchi navbatda qimmatli qog‘ozlar bozorida) o‘z o‘rnini saqlab qolishi;


➤ sho‘ba korxonalarini tashkil qilish orqali mijozlar va resurslar bazasini, xizmat turlarini kengaytirish;

➤ mijozlarga nisbatan ta’sir doirasini kuchaytirish (ularning qimmatli qog‘ozlarini nazorat qilish orqali).

Tijorat banklari aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarni sotib olgandan keyin, u bu jamiyatni moliyaviy holatini barqarorligini saqlab turishga majbur bo‘lib qolishi ham mumkin. Chunki bu yerda bank tomonidan qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarni yo‘qotish riski yuzaga chiqadi. Bunday holatlarni oldini olish uchun tijorat banklarini qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilish faoliyati bo‘yicha ma’lum cheklovlar ko‘zda tutilgan.

Ushbu mavzuni biz tijorat banklarining “Toshkent” Respublika fond birjasida qilingan investitsion operatsiyalarini tahlil qilib chiqishdan boshlashni lozim topdik. Investitsiyalar tuzilmasining o‘z vaqtida va to‘liq qilingan tahlili ham o‘z navbatida muhim ahamiyatga ega, chunki bu tahlil natijasida investitsiyalardan foydalanishdagi tendensiyalarni aniqlash hamda samarali investitsiya siyosatini ishlab chiqishga yordam beradi.

2017 yilning 1 - 6 may kunlari «Toshkent» Respublika fond birjasi savdolarida 12ta aksiyadorlik jamiyatining qimmatli qog‘ozlari bilan 137 ta bitim qayd qilinib, 891,2 mln. dona aksiya 1,3 mlrd. so'mga sotildi. Eng yirik bitim 5-may sanasida «Ipoteka-bank» ATBning 511,7 mln. dona aksiyasi bilan 511,7 mln. so'm miqdorida tuzildi.



5-rasm. 2016-yil davomida savdo aylanmasida iqtisodiyot tarmoqlari ulushi¹⁰

2016-yilda birja savdo aylanmasida 28,8 foizi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirilgan bitimlardan iborat bo'ldi. Agrosanoat majmuasi ulushi esa 17,4 foizini tashkil etdi. Qurilish tarmog'ining ulushi eng past ko'rsatkichni tashkil etdi.


Bundan tashqari, fond birjasining o'tgan ikki oylik umumiy savdo aylanmasi tarkibi investorlar toifasiga ko'ra tahlil qilinganda, tuzilgan bitimlar umumiy hajmining 73,0 foizi yoki 11,1 mlrd. so'mlik qismini yuridik shaxslarning investitsiyalari tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

Tahlillarga ko'ra investor sifatida jismoniy shaxslar eng ko'p tijorat banklari (88,6 foiz) va sug'urta kompaniyalari (2,2 foiz) aksiyalariga yuqori qiziqish bildirishgan. Investor sifatida yuridik shaxslar tomonidan kiritilgan investitsiyalarning asosiy qismi esa agrosanoat majmuasi (23,8 foiz) va moliyaviy tarmoqqa (17,5 foiz) mansub jamiyatlarning qimmatli qog'ozlariga to'g'ri keladi. «Toshkent» Respublikasi fond birjasi savdo aylanmasining umumiy hajmi 2016 yilda birja faoliyati tarixidagi eng yuqori ko'rsatkichni - 299,8 mlrd. so'mni

¹⁰ www.uzse.uz ma'lumotlari 2017 y.

tashkil qildi va 2015 yil savdo aylanmasiga (161,0 mlrd. so'm) nisbatan 1,9 marta oshdi.

Mazkur davrda fond birjasida qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan bitimlar soni 3080 tani tashkil etgan holda 2015-yilga nisbatan 1,1 marta yuqori natija qayd etildi. Yil boshidan buyon birja savdolari orqali 141 ta aksiyadorlik jamiyatining 689,1 mln. dona qimmatli qog'ozlari bilan birja bitimlari amalga oshirildi.




**6-rasm. 2012-2016-yillar davomida birja savdo aylanmasi dinamikasi
(mlrd.so'mda)¹¹**

O'tgan 2016 yilda umumiy birja savdo aylanmasida iqtisodiyotning moliyaviy tarmog'i ulushi 51,6 foizi yoki 154,8 mlrd. so'mni tashkil qilgan holda, shundan 50,6 foizi yoki 151,8 mlrd. so'mlik qismi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirilgan bitimlardan iborat bo'ldi. 2015 yilda birja savdo aylanmasida moliyaviy tarmoqning ulushi 88,4foizi yoki 141,3 mlrd. so'mni tashkil qilgan edi.

Tijorat banklari tobora o'zlariga xos bo'lmagan operatsiyalarini amalga oshira borib, banklar uchun noan'anaviy hisoblangan moliya tadbirkorligini joriy etmoqda, jumladan, qimmatli qog'ozlar operatsiyasi, lizing va faktoring hamda kredit-moliya xizmatining boshqa turlari bilan shug'ullanmoqda, taqdim etiladigan

¹¹ www.uzse.uz ma'lumotlari 2017 y.

xizmatlar doirasini tinmay kengaytirib, sifatini yaxshilamoqda, yangi istiqbolli mijozlarni jalb qilish uchun raqobatlashmoqda.



7-rasm. Qimmatli qog'ozlar bozorida birja tarkibi¹²

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki murojatlarning ikkilamchi bozori yil sayin kamayib borgan, ammo so'ngi 2015 yilda o'sish tendensiyasiga ega. Biz tahlil qilayotgan davrda ikkilamchi bozorning mutloq ustunligi 2010 yilda vujudga kelgan(murojatlarning ikkilamchi bozori 87,5 foizni joylashtirishning birlamchi bozori atigi 12,5 foizni tashkil etgan). Keyingi yillarda ikkilamchi bozorning faolligi kamayib borgan va asosiy e'tibor qimmatli qog'ozlarning dastlabki joylashtirilishiga qaratilgan. Bu holat 2014 yilga qadar davom etgan holda ikkilamchi bozor 33 foizgacha kamaygan. Faqatgina 2015 yilda yana jonlanish kuzatilib ikkilamchi bozor 58,8 foizni tashkil etdi. 2016 ko'rsatkich 57,3 foizni tashkil qilgan.

¹² "Bank axborotnomasi" gazetasi, № 5(1080), 2017-yil 2-fevral, 10-bet.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalar tuzilmasi asosan xususiy investorlar va tadbirkorlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar natijasida shakllanadi. Biroq davlat bu portfeldan tashqarida bo'lmisligi kerak.


O'z moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida, tijorat banklari O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida ham eng yirik brokerlar va dileplar sifatida ish yuritadi. O'zbekistonda ko'p tijorat banklari o'z mablag'larini turli xildagi moliyaviy dastaklarga qo'yish yo'li bilan qimmatli qog'ozlar bozorining faol ishtirokchisiga aylanadi. Bunda bank portfelni yuqori likvidli va yuqori daromadli fondlardan shakllantirib, aniq investitsiya siyosatni ishlab chiqadi. Bank tomonidan o'z hisobiga amalga oshiriladigan fond qimmatli qog'ozlari bilan dilerlik operatsiyalari keng tarqalgan bo'lib, ularning maqsadi qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish bahosidagi farqdan foyda (spred) olishdir.

Agarda tijorat banki brokerlik faoliyatini amalga oshirayotgan bo'lsa, O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, uning operatsiyalari fond birjasi orqali amalga oshirilishi lozim. Buni hisobga olib, tijorat banklarining brokerlik funksiyasi brokerlik idoralari tarmog'i orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklar investitsiya faoliyatining faollashuvi shuni ko'rsatadiki, bu faoliyat tijorat banklari uchun foydali bo'lish bilan bir qatorda qimmatli qog'ozlar bozorida raqobatchilik muhitining faollashuviga ko'maklashadi.

Har bir bank investitsiya portfelining muayyan qismini bank tomonidan qo'shma va sho'ba korxonalarga kiritilgan paylar va ulushlar tashkil etadi. Ushbu qo'yilmalardan keladigan daromad ba'zan katta miqdorlarga yetishi, ammo ayrim hollarda umuman bo'lmisligi ham mumkin. Turlicha bozor tuzilmalarining ta'sischi bo'lmish banklar ularga katta mablag'larni qo'yilma qiladi. Masalan, banklar investitsiya muassasalari va birjalarning ta'sischi bo'lishi mumkin. Amalda O'zbekistondagi har bir bank turli yo'nalishdagi bir yoki hatto bir necha investitsiya muassasalari - investitsiya vositachilari, investitsiya kompaniyalari va h.k.larning ta'sischi bo'ladi.

Quyidagi rasmda biz “Toshkent” Respublika fond birja aylanmasining investorlar tarkibini solishtirma qiyosiy tahlilini qilib chiqamiz.



8-rasm. Investorlar kesimida birja aylanmasining tarkibi¹³

Ma'lumotlardan ko'rinadiki yillar davomida birja aylanmasidagi investorlar ulushi keskin o'zgapishlarga ega. Bu investorlarning bozordagi talab va taklifi asosida shakllantirilgan. Birja aylanmasida 2017 yil aprel holatiga jismoniy shaxslar 84,1 foizni tashkil etib eng yirik investorlik o'rnini mustahkamlangan bo'lsa, sug'urta tashkilotlari 14,0 foizni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan birja aylanmasi tarkibidagi ulushini oshganligini ko'rishimiz mumkin. Birja aylanmasida boshqa yuridik shaxslarning ulushi 1,9 foizni tashkil etdi.

Mamlakatimiz qonunchiligi hamda soliq tizimidagi o'zgarishlar va yaratilgan imtiyozlar samarasida jismoniy shaxslarning birja aylanmasidagi ulushi ortib borganini ko'rishimiz mumkin.

Qonunchilikka ko'ra, O'zbekiston tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida investor, emitent, broker va dilerlar sifatida faoliyat yuritadilar. Birinchi funksiyani ular foyda olish va aktivlarini diversifikatsiya qilish maqsadida

¹³ www.uzse.uz sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

akkumulyatsiya operatsiyalari orqali jalb qilingan mablag'larini yuqori likvidli va daromadli bo'lgan turli qimmatli qog'ozlarni sotib olish jarayonida amalga oshiradi. Ustav kapitalini shakllantirish uchun aktsiyalar emissiya qilish orqali esa emitent sifatida faoliyat olib boradi. Banklar o'zlarining brokerlik ishlarini o'zlarining brokerlik idoralari tarmog'i orqali amalga oshiradilar. Bugungi kunda tijorat banklari qimmatli qog'ozlarning milliy bozorida o'z mavqeiga ega.

O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida banklarning investitsiya institutlar sifatida faolligi bu faoliyat tijorat banklari uchun foydali va umuman olganda fond bozorida raqobatchilik muhiti faollashuviga yordam beradi, degan xulosaga olib keladi.

1-jadval.

2016-yilda eng yirik savdolar hajmi bo'yicha emitentlar TOP-10ligi¹⁴

Emitent nomi	Tarmoq	Hajmi, mlrd.so'mda
"InFinBank" ATB	Bank	54,0
"Ipoteka-bank" ATIB	Bank	28,5
"HI-TECH BANK" XATB	Bank	18,8
"Toshkent yo'lovchi vagonlarini qurish va ta'mirlash zavodi"	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ	13,6
"Asia Alliance Bank" ATB	Bank	13,1
"O'zkiyopolimersavdo"	Tashkilotlar tuzilmasi tarkibiga kirmaydigan subyektlar	11,2
"Sarbon-Neftegaz"	"O'zgeoburg'üneftgaz"	11,0
"Savdogarbank"	Bank	9,9
"Shifobaxsh buloq"	Tashkilotlar tuzilmasi tarkibiga kirmaydigan subyektlar	7,2
"Trastbank"	Bank	6,5

2016-yil yakunlariga ko'ra, "Toshkent" respublika fond birjasida eng yirik savdolar hajmi "InFinBank" ATB tomonidan amalga oshirilgan. Keyingi o'rinlarda "Ipoteka-bank" ATIB va "HI-TECH BANK" XATB banklari

¹⁴ "Bank axborotnomasi" gazetasi, № 5(1080), 2017-yil 2-fevral, 10-bet.

egallaydi. Eng yirik savdolar hajmi bo'yicha dastlabki 10 emitentlardan 6 tasi tijorat banklari hisoblanadi.

Bankning qimmatli qog'ozlar portfeliga oid ichki hisoboti qimmatli qog'ozlarning turi va xillari, sifat tasnifi, nominal va bozor qiymati (narxi), sotib olish va sotish sanasi, foiz stavkasi, chegirmasi, olingan dividendlar yoki foizlar, oldi - sotdi bitimlar foydasi bo'yicha qismlarga bo'lingan bo'lishi kerak. Bunday hisobot investitsion qimmatli qog'ozlar bo'yicha, shuningdek, olish-sotish uchun mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar bo'yicha ham muntazam ravishda tayyorlanishi zarur.

Shunga qaramasdan mamlakatimiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida investitsion faolligi juda ham sust. Xususan bu boradagi tahlilni Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki misolida ko'rib chiqamiz.

TIF Milliy bank Respublikamizdagi eng yirik investitsion banklardan biri hisoblanadi. Bankning keng ko'lamli va zamonaviy infratuzilmasi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni faol qo'llab-quvvatlaydigan moliya va sanoat sektorlari rivojlanishiga ko'maklashmoqda.

Jumladan, 2016 yil 1-yanvar holatiga aksiyalar va ulushlarni xarid qilish yo'li bilan korxonalar ustav kapitaliga investitsiya qilingan bankning umumiy qo'yilmalari 791,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2016 yil 1 yanvar holatiga bank balansiga qabul qilingan 68 ta korxona mulkidani: 60 ta korxonaning mol - mulki yangi mulkdorlarga sotildi; 8 ta korxonada ishlab chiqarish faoliyati tiklandi va salohiyatli investorlarga sotish ishlari olib borildi. Korxonalarda ishlab chiqarishni tiklash, modernizatsiya qilish va ularni zaruriy aylanma sarmoya bilan ta'minlash uchun jami 264,2 mlrd. so'm miqdorida, xususan 2015 yilda 10,0 mlrd. so'm miqdorida mablag'lar investitsiya qilingan. Bankrot korxonalarning bank balansiga qabul qilingan mol-mulkini sotish borasida ko'rilgan chora- tadbirlar natijasida hozirgi kunga qadar 60 takorxonaning mulki 1011,7 mlrd. so'm ekvivalenti qiymatida sotildi. Shundan, tuzigan shartnomalarning shartlariga muvofiq

investorlar tomonidan 318,1 mlrd. so‘m ekvivalenti miqdoridagi to‘lovlar to‘lab berildi.

Bank kapitallashuv darajasi yildan yilga ortib kreditlash salohiyati ham yuqorilab bormoqda va buning natijasida 2016 yil yakunlari bo‘yicha yillik sof foyda miqdori bo‘yicha Respublika bank tizimida yetakchilikni qo‘lga kiritdi. Investitsion kreditlashda bank tomonidan loyihalarni samaradorlik tahlili olib boriladi bu esa kelajakda kreditlarning o‘z vaqtida qaytishiga zamin yaratadi.


2-jadval

TIF Milliy bankning 2017 yil 1 yanvar holatiga asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma’lumot (mln so‘mda)¹⁵

Ko‘rsatkichlar nomi	01.01.2016 y	01.01.2017 y.	Farqi	O‘sishi (%)
Jami kapital (subordinar obligatsiyalar va boshqa subordinar qarzar bilan birga)	2 124 391	2 702 916	578 525	127,20%
Ustav kapitali	160 946	200 946	40 000	124,9%
Bank aktivlari jami	16 070 649	20 012 520	3 941 871	124,50%
Kredit qo‘yilmalari jami	9 975 127	13 022 120	3 046 993	130,50%
Investitsion kreditlar	8 581 774	11 953 656	3 371 882	139,30%
Kichik biznes korxonalariga ajratilgan kreditlar	1 479 054	2 520 000	1 040 946	170,40%
Mikrokreditlar	227 543	412 000	184 457	181,10%
Iqtisodiyotning real sektoriga kredit qo‘yilmalari	9 975 127	12 954 740	2 979 613	129,90%
Yuridik shaxslarga kreditlar	9 129 168	11 729 719	2 600 551	128,50%
Jismoniy shaxslarga kreditlar	845 958	1 225 021	379 063	144,80%
Bir yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar	9 798 271	12 624 439	2 826 168	128,80%
Jami depozitlar qoldig‘i	8 040 889	10 051 111	2 010 222	125,0%
Bank infratuzilmalari	580	580	–	100,00%
Filiallar	93	93	–	100,00%

¹⁵ www.nbu rasmiy sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.


Jadval malumotlarini tahlili shuni ko'rsatadiki bankning kapitallashuv darajasi ijobiy ko'rinishda bo'lib 01.01.2017 yil holatiga 2 702 916 mln so'mni tashkil etgan holda o'tgan yildan 27,20 foizga o'sgan, kredit qo'yilmalari hajmi 2017 yil 1 yanvar holatiga 13 022 120 mln so'mni tashkil etgan bu o'tgan yilga nisbatan 30,5 foizga oshganligini ko'rsatmoqda, bankning investitsion kreditlari esa 2017 yil 1 yanvar holatiga 11 953 656mln so'mni tashkil etgan holda o'tgan yilga nisbatan 39,3 foizga oshganligini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari iqtisodiyotning real sektoriga ajratilgan kreditlar hajmi ham yuqori ko'rsatkichga ega. Iqtisodiyotning real sektoriga ajratilgan kreditlar hajmi 01.01.2017 yil holatiga 12 954 740 mln so'mni tashkil etmoqda, kichik biznes subektlariga ajratilga kreditlar hajmi ham yuqori o'sish suratiga ega bo'lib o'tgan davrga nisbatan 70,40 foiz ga o'sish kuzatilgan, bankning jami depozit qoldig'i ham ijobiy o'sish ko'rsatkichida deyish mumkin o'tgan davrga nisbatan depozitlar 25 foizga o'sgan.



9-rasm. TIF Milliy bankning 01.01.2017 holatiga asosiy ko'rsatkichlari¹⁶

¹⁶ www.nbu rasmiy sayti malumotlari asosida tayyorlandi.

Yuqorida Milliybankning 2017 yil 1 yanvar holatidagi asosiy ko'rsatkichlari o'tgan yil bilan taqqoslash uchun grafik ko'rinishida keltirildi. E'tibor beradigan jihati jami kreditlarda har ikkala yilda ham investitsion kreditlar yuqori ulushni tashkil etmoqda. Bu esa bankning investitsiya faoliyatining faol ishtirokchisi ekanligini ko'rsatadi. Jami kreditlarda investitsion kreditlar salmog'i 90 foiz atrofini tashkil etmoqda, mikrokreditlar hajmi esa jami kreditlar tarkibida juda kam ulushiga ega. Demak bank kredit siyosatida uzoq muddatli kreditlarga katta e'tibor qaratilgan.



10-rasm. TIF Milliy bankning 01.01.2017 holatiga kredit qo'yilmalari dinamikasi¹⁷

Kredit qo'yilmalari dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki Milliy bank kredit qo'yilmalari yildan yilga oshib borish tendensiyasiga ega va kreditlarning asosiy qismini investitsion kreditlar tashkil etmoqda. O'z navbatida bankning kichik biznesga ajratilgan va mikrokreditlari sezilarli darajada o'sish tendensiyasiga ega faqat ularning jami kreditlardagi ulishi kamroq ekanligini ko'rib turibmiz.

¹⁷ www.nbu rasmiy sayti malumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Jumladan, kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash uchun bank tomonidan 2015 yilda 1,8 trillion so'm miqdorida kreditlar ajratilgan bo'lsa, joriy yilning birinchi yarim yilligida 1,3 trillion so'mdan ortiq kreditlar yo'naltirildi.

Buning natijasida 5 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari tashkil etildi. Kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashda xalqaro moliyaviy tashkilotlarining mablag'larini jalb etish ham sinalgan usuldir. Shu bois Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tomonidan 2016 yil 29 iyunda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki bilan meva-sabzavotchilik sektorini rivojlantirish loyihasi doirasida 50 million AQSH dollari miqdoridagi mablag'ni jalb etish bo'yicha bosh kelishuv imzolandi. Bu mablag'lar meva-sabzavotchilik sektorini rivojlantirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida joylashgan loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.

2.2. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiradigan emission operatsiyalari holati tahlili

O'zbekiston Respublikasi banklari emission faoliyatni amalga oshiradilar. Qonun bo'yicha banklar aksiya, obligasiya, depozit sertifikatlari, veksellar, hosilaviy qimmatli qog'ozlarni (opsionlar, fyucherslar) emissiya qilishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining emission operatsiyalari uchun huquqiy asos bo'lib O'zbekiston Respublikasining «Markaziy banki to'g'risida»gi 21.12.1995 yilda qabul qilingan qonuni, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi 25.04.1996 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar emissiyasining asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi:

- bank mijozi bo'lmish – investorlarning manfaatlariga risk, daromad va likvidlik ko'rsatkichlarining to'g'ri kelishi;
- jalb qilinayotgan resurslarning hajmi va muddati bo'yicha bank manfaatlariga to'g'ri kelishi, uning bahosini boshqa turdagi pul majburiyatlariga


nisbatan to‘g‘ri kelishi, soliqqa tortish shartlari bo‘yicha, joylashtirish xarajatlari, bank zimmasidagi risklar va boshqalar bo‘yicha bank manfaatlariga to‘g‘ri kelishi;

- qimmatli qog‘ozlar shaklida aktivlar bilan bog‘liqligi;
- qimmatli qog‘ozlarni moliyaviy tovar sifatida, o‘ziga xoslik, o‘zida yangilikni mujassamlashtirgan mahsulot sifatida chiqarish;
- bank rezervlarini qimmatli qog‘ozlar shaklida mujassamlashtirib boshqarish;
- qimmatli qog‘ozlarni turlari bo‘yicha optimal nisbatini rejalashtirish.

O‘zbekiston tijorat banklari tomonidan chiqarilayotgan qimmatli qog‘ozlar ikkita asosiy guruhga bo‘linadi:

- ulushli – aksiyalar;
- majburiyatli – depozit (jamg‘arma) sertifikatlari, obligatsiyalar, veksellar (emissiya qilish vaqtincha to‘xtatilgan).

Xorij tajribasini o‘rganadigan bo‘lsak banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatining asosiy yo‘nalishi bo‘lib aksiyalar bozoridagi ishtiroki hisoblanadi.



8-rasm. Birja aylanmasining dinamikasi (mlrd. so'm)¹⁸

¹⁸ www.uzse.uz sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Ko'rinib turibdiki "Toshkent" Respublika fond birjasida qimmatli qog'ozlar savdosi doimiy o'sish va tushish trendiga ega. Emitent va investorlarning talab-taklifi asosida birja savdolari hajmi o'zgarib turgan. Rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki 2015 yilda 71,8 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa 2016-yilda esa 90,3 mlrd. so'm va 2017 yil aprel holatiga 22,1 mlrd. so'mni tashkil etib savdolar hajmi oshganini ko'rishimiz mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozorida savdolar o'rta hisobda yil sayin o'sib borishiga qaramasdan tijorat banklarimiz qimmatli qog'ozlar emissiya qilishda opqada qolmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 24-aprel, PF-1749 sonli, "Xususiy tijorat banklarini ochishni rag'batlantirish to'g'risida"gi Farmoniga binoan xususiy tijorat banklarini rivojlantirish, qo'llab quvvatlash va banklarning ustav kapitaliga xususiy kapitalni jalb qilish davom etmoqda. O'zbekistonda 8 ta xususiy bank faoliyat yuritmoqda (2016-yil holatiga). Xususiy kapitalning bank ustav kapitaliga jalb qilinishi va uni oshirib borishning sababini shunday tushunish kerakki, xususiy mulkdorlar o'z kapitallarining samarali ishlatilishiga manfaatdordir va uning doimiy monitoringini olib boradilar, qolaversa, kapitalni iqtisodiyotga ratsional ravishda joylashtiradilar. Shu munosabatlarda, aynan xususiy kapitalning mamlakatimizdagi olib borilayotgan bozor islohotlari katalizatori bo'lib qolishi haqiqatdan yiroq emas albatta.

Tijorat banklari o'z aksiya va obligatsiyalarini Markaziy bankning me'yoriy hujjatlariga tayangan holda chiqaradi. Ushbu me'yoriy hujjatlar shuni talqin qiladiki, tijorat banklari quyidagi 3 ta hollarda emissiyani amalga oshirishi mumkin:

- tashkil bo'layotganida;
- boshlang'ich ustav kapitali hajmini oshirishda aksiyalar chiqarish;
- qo'shimcha kapital jalb qilish uchun obligatsiya va boshqa qarz majburiyatlarini chiqarish.

2016 yil davomida aksiyadorlik tijorat banklari tomonidan bank ustav kapitalini oshirish maqsadida 401,4 mlrd. soʻmlik aksiyalar investorlar oʻrtasida, shundan, 245,7 mlrd. soʻmlik aksiyalar nodavlat sektori oʻrtasida joylashtirildi.

Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 25 martdagi «Oʻzbekiston Respublikasi Davlat tijorat Xalq bankining kapitallashuv darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi PQ-2325-sonli Qarori bilan 2015 - 2017 yillar davomida bank ustav kapitalini 185,0 mlrd. soʻmga oshirish orqali 385,0 mlrd. soʻmga yetkazish, shu jumladan, 2016-yilda 54,0 mlrd. soʻmga oshirilishi yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirildi.

6 -jadval

Tijorat banklari ustav kapitaliga joylashtirilgan mablagʻlar¹⁹, (mlrd.soʻm)

№	Banklar	Summasi mlrd. soʻmda
1.	Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankining	75,0
2.	«Agrobank» ATB	50,0
3.	«Mikrokreditbank» ATB	25,0
4.	«Qishloq qurilish bank» ATB	25,0
	Jami	175,0

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 26-oktyabrdagi «Banklarning kapitallashuv darajasini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi PQ-2420-sonli Qaroriga muvofiq, 2016-yil davomida Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankining ustav kapitaliga 75,0 mlrd. soʻm, «Agrobank» ATB ustav kapitaliga 50,0 mlrd. soʻm, «Mikrokreditbank» ATB ustav kapitaliga 25 mlrd. soʻm va «Qishloq qurilish

¹⁹ www.cbu.uz sayti 2016 yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetary soyosatning 2017 yilga moʻljallangan asosiy yoʻnalishlari maʼlumotlari asosida tayyorlandi..

bank» ATB ustav kapitaliga 25 mlrd. soʻmlik mablagʻlarning joylashtirilishi taʼminlandi.

Aksiya va obligatsiyalarning emissiyasi asosida bankning ustav kapitali va qoʻshimcha kapital yuzaga keladi. Bank aksiyalarining orasida eng koʻp tarqalgani bu – oddiy aksiyalardir. Imtiyozli aksiyalar esa banklarimiz tomonidan nisbatan kamroq chiqarilmoqda, chunki bu borada chegaralar oʻrnatilgan va imtiyozli aksiyalarni chiqarish bank umumiy kapitalining 20 foizidan oshmasligi kerak.

Tijorat banklari tomonidan emissiya qilinayotgan navbatdagi qimmatli qogʻozlar turiga bank obligatsiyalarlarini, yaʼni korpopativ obligatsiyalarni kiritish mumkin. Bizda ushbu bozor endi shakllanmoqda. Vaholanki, jahon tajribasidan maʼlumki bank obligatsiyalarlari moliya bozorida muhim oʻrinni egallaydi.

Shu bilan birga, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 21dekabrdagi «Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi PQ-2454-sonli Qarori talablaridan kelib chiqqan holda tijorat banklari tomonidan bank ustav kapitalining 15 foizidan kam boʻlmagan qismini xorijiy investorlarga sotish yuzasidan oʻtgan davr mobaynida zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, ushbu qaror talablaridan kelib chiqib, Markaziy bankning «Banklarni roʻyxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi toʻgʻrisida»gi Nizomiga tegishli oʻzgartirishlar kiritildi.

Bugungi kunda respublikamizda faoliyat yuritayotgan 12 ta tijorat banklarining («KDB Bank Oʻzbekiston» AJ, «OʻT bank» AJ, CHEKI «Savdogarbank ATB, CHEKI «Hamkorbank» ATB, «Ipak Yoʻli banki» AITB, «Asia Alliance Bank» ATB, «Orient Finans» XATB, «Madad Invest Bank» XATB, «Ravnaq-bank» XATB, «Kapitalbank» ATB, «Trastbank» XAB va «Invest Finance Bank» ATB) ustav kapitaliga Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi,

Koreya taraqqiyot banki, Gollandiya rivojlanish va taraqqiyot tashkiloti kabi moliyaviy tashkilotlar hamda boshqa xorijiy investorlarning ulushlari jalb etildi.

Bundan tashqari, tijorat banklari resurs bazasini barqaror manbalar hisobidan yanada kengaytirib borish maqsadida banklar tomonidan uzoq muddatli obligatsiyalar va depozit sertifikatlarini muomalaga chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, tijorat banklarining muomaladagi qarz qimmatli qog'ozlari hajmi 2017 yil 1-yanvar holatiga 1 054,1 mlrd. so'mni, jumladan, muomaladagi uzoq muddatli obligatsiyalar 216,3 mlrd. so'mni va depozit sertifikatlari miqdori 837,8 mlrd. so'mni tashkil etmoqda.

Bugungi kunda, bank sektorining shakllanishida xususiy kapitalning ishtirok etishini me'yor ham, yutuq ham deb bo'lmaydi. Bu yo'nalishda banklarda yetarlicha zaxiralar mavjud va ular o'z aksionerlari doirasini kengaytirish bo'yicha faoliyatni faollashtirishi kerakdir.

Depozit (jamg'arma) sertifikatlarini emissiyasi bilan faqatgina bank tashkilotlari shug'ullanishi mumkin va ular quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

➤ aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun depozit resurslarni jalb qilish. Bu quyidagilar hisobiga erishiladi:

➤ soliqqa tortilish bo'yicha ustunligi.

➤ qo'yimlar likvidligini yuqori darajada ta'minlash.

➤ qo'yilma riskini mumkin qadar tushirish.;

➤ bank mijozlari doirasini ularga ko'rsatilayotgan xizmatlarni diversifikatsiya qilish yo'li bilan kengaytirish;

➤ likvidlik riskini tushirish. Bunda bank, depozit (jamg'arma) sertifikatlarini emissiya qilib, qat'iy muddatli passivlarga ega bo'ladi va bu ma'lum darajada likvidlik riski darajasini tushiradi.

O'zbekiston tijorat banklari yuridik shaxslar uchun depozit sertifikatlari bo'yicha 1 yilgacha – muddat o'rnatadilar. Masalan, depozit sertifikatlarining

vekseldan farqi uning muddatligidadir. Depozit sertifikatlariga qo'yiladigan eng yuqori muddat 1 yildir, jamg'arma sertifikatlariga esa 3 yil.

O'zbekiston Respublikasida depozit va jamg'arma sertifikatlarining emissiyasi, 103-sonli 24.12.1994 yilda qabul qilingan "Bank depozit sertifikatlarini emissiya qilish, ro'yxatdan o'tkazish va muomalasi tartibi" me'yoriy hujjati va 12.07.2007 yil o'nta kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan tartibga solinadi.

Bank tizimini tezkor ravishda rivojlantirish ma'lum darajada banklarning resurs bazasini kengaytirish bilan bog'liq. Ham yuridik, ham jismoniy shaxslarning bo'sh turgan moliyaviy resurslarini jalb qilish maqsadida, tijorat banklari tomonidan depozit va jamg'arma sertifikatlari chiqariladi. Endi bank veksellari holati to'g'risida so'z yuritsak. Bank veksellarining emissiyasi va muomalasi vaqtincha to'xtatilgan bo'lsada, ishimizda unga qisman to'xtalib o'tishni lozim topdik. Bank veksellari odatda ikki maqsadda emissiya qilinadi:

- ularni sotib olishdan investorlarning daromad olishi
- korxonalar o'rtasidagi to'lov funksiyasini bajarish.

Mohiyatiga ko'ra veksellar o'zida shu ikkala funktsiyani mujassamlashtirgan. Shular bilan birga uning kredit funktsiyasi ham faol ishlaydi.

Bank veksellarining tartibi barcha emitentlar veksellarining umumiy tartibiga mos keladi va u "Oddiy va o'tkazma veksellar to'g'risidagi nizom" bilan huquqiy tartibga solinadi. Bu bank vekselining emissiyasi va muomalada bo'lishining 2 ta asosiy xususiyatini o'zida namoyon qiladi: bir nusxada yoki seriyali emissiya qilish mumkinligi, hamda banklar tomonidan mustaqil ravishda, nizomga to'g'ri keladigan, o'zining veksellarini emissiyasi va muomalasining tartibini o'rnatilishi mumkinligi. Bank veksellari (yoki moliyaviy veksellar) bank institutlari tomonidan tovarli veksellar singari bir xil xususiyatda chiqariladi. Lekin ular tovar veksellaridan farqli ularoq. aniq tovar bilan qoplanmagan, ya'ni ular real tovar-material boyliklar bilan ta'minlanmagan bo'lib, faqatgina, bank aktivlari bilan ta'minlangandir. Bunday veksellar, shuningdek pul mablag'larini

joylashtirish va undan daromad olish maqsadi uchun ham xizmat qiladi va bu funksiyasi uni depozit sertifikatini bilan o'xshashligini ko'rsatadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bank veksellari bir nusxada yoki seriyali ravishda chiqarilishi mumkin. Banklar seriyali tartibda veksellarni chiqarishga ko'proq e'tiborini qaratgan, chunki bunday holatda ko'p miqdorda investorlarni, va demak, katta hajmda resurslarni jalb qilish mumkin. Veksellarni qanday holatda va tartibda emissiya qilishni bank, veksel emissiyasi yordamida hal qilinadigan muammolarning xususiyatidan kelib chiqqan holda belgilaydi.

Tijorat banklarining emission faoliyatida andarrayting operatsiyalari ham ommaviylashib bormoqda. Andarrayting, ya'ni mijozlarning qimmatli qog'ozlarini birlamchi emissiyasi va realizatsiyasini amalga oshirib komission daromad ko'rish banklarning e'tiborini o'ziga qaratmoqda. Ushbu xizmat turi emission va dilerlik operatsiyalarni o'zida mujassam etib, uni tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi vositachilik operatsiyalari deb ham atash mumkin.

7-jadval

AT "Aloqabank" tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga chiqarilgan depozit sertifikatlar²⁰ (01.01.2017 y)

Mijoz turi	Ro'yxatdan o'tkazilgan sertifikatlar		Hisobot sanasiga qadar:		Muomalada qolgan miqdor ming.so'm
	Soni dona	Summa ming.so'm	Joylashtirilga summa ming.so'm	so'ndirilgan summa ming.so'm	
Yuridik shaxslar uchun chiqarilgan depozit sertifikatlar	965	450 000 000,00	438 900 000,00	418 300 000,00	20 600 000,00
jismoniy shaxslar uchun chiqarilgan jamg'arma sertifikatlar	690	1 000 000,00	741 200,00	741 200,00	-

Hozirgi kunga qadar AT "Aloqabank" da yuridik shaxslar uchun chiqarilgan depozit sertifikatlar 965tani tashkil etib, 450 000 000 ming so'mni tashkil etgan.

²⁰ www.Aloqabank.uz ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Muomalada 20 600 000 ming so'mlik depozit sertifikatlari qolgan. Jismoniy shaxslar uchun chiqarilgan depozit sertifikatlari 690tani tashkil etib, 1 000 000 ming so'mni tashkil etgan va bugungi kunda hammasi so'ndirilgan.

8-jadval

AT "Aloqabank" tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar to'g'risida 01.01.2017 holatiga ma'lumot²¹(ming.so'm)

№	Ro'yxatdan o'tkazilgan obligatsiyalar		nominal qiymati	Muomala muddati	yillik foiz stavkasi	Muomalada qolgan miqdor
	Soni dona	Summasi ming so'm				
1	30 000	3 000 000,00	100	1825 kun	9	-
2	30 000	3 000 000,00	100	1825 kun	9	-
3	30 000	3 000 000,00	100	1825 kun	9	3 000 000,00
4	30 000	3 000 000,00	100	1095 kun	9	-
	120 000	12 000 000				3 000 000,00

AT "Aloqabank" tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar soni 120000 tani tashkil etib, 12 000 000 ming so'mni tashkil etgan. Muomalada faqat 2012-yilda chiqarilgan 3 000 000 ming so'mlik obligatsiyalar mavjud, qolganlari so'ndirilgan. Bugungi kunda AT "Aloqabank" da fond bozoridagi vositachilik operatsiyalari mavjud emas.

Yuqoridagi malumotlar asosida tijorat banklarining emission operatsiyalari holatiga xulosa qilib aytganda, so'ngi yillar misolida ko'rilgan faoliyatning natijalari shuni ko'rsatadiki, respublikamizning zamonaviy qimmatli qog'ozlar bozoridan hozircha ko'proq birlamchi emissiya va birlamchi bozor xarakterli bo'lib turibdi, chunki ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozoridan hozircha ko'proq birlamchi emissiya va birlamchi bozor xarakterli bo'lib turibdi, chunki ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanmaganligi asosan qimmatli qog'ozlarning likvidlik va daromadlik darajasini pastligi, o'sha yillarda narx inflyatsiyasining tebranuvchan bo'lganligi, keng jamoaning bank qimmatli qog'ozlariga bo'lgan ishonchining pastligi, qolaversa moliyaviy holatning nobarqarorligidandir.

²¹ www.Aloqabank.uz ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2-bob bo'yicha xulosa

Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarning investitsion operatsiyalarini mohiyatiga ko'ra quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

Birinchidan, bankning daromad bazasini kengaytirish va diversifikatsiya qilish;

Ikkinchidan, bank tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan faoliyat turlarini kengaytirish hisobiga uning moliyaviy barqarorligini oshirish va bankning umumiy risk darajasini tushirish;

Uchinchidan, banklarning nisbatan ko'proq daromad keltiruvchi bozorlarda (birinchi navbatda qimmatli qog'ozlar bozorida) o'z o'rnini saqlab qolishi;

To'rtinchidan, sho'ba korxonalarini tashkil qilish orqali mijozlar va resurslar bazasini, xizmat turlarini kengaytirish hamda mijozlarga nisbatan ta'sir doirasini kuchaytirish (ularning qimmatli qog'ozlarini nazorat qilish orqali).

Xususan, tijorat banklarining muomaladagi qarz qimmatli qog'ozlari hajmi 2017 yil 1 yanvar holatiga 1 054,1 mlrd. so'mni, jumladan, muomaladagi uzoq muddatli obligatsiyalar 216,3 mlrd. so'mni va depozit sertifikatlari miqdori 837,8 mlrd. so'mni tashkil etmoqda.

Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarning investitsion va emission operatsiyalarini tahlili keltirilgan bo'lib, banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi ulushi kam hisoblanadi.

3-BOB. TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAGI EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

3.1. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq emission operatsiyalarni rivojlantirishdagi mavjud muammolar

O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bank operatsiyalarini rivojlanmaganligini kuzatish mumkin. Bu holat respublikamiz tijorat banklarining aktivlarini tarkibida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning kichik salmoqqa ega ekanligida yaqqol namoyon bo'ladi. Buning natijasida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlardan oladigan dividend va foiz ko'rinishidagi daromadlari banklarning yalpi daromadlarining hajmida juda kichik salmoqni egallaydi. Masalan, 2016 yilda Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankining investitsiyalar va qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalari jami aktivlari tarkibida 7 foizni, passivlari tarkibida esa 1 foizni tashkil qildi²².

Holbuki, rivojlangan industpial mamlakatlarda tijorat banklarining foizli daromadlarining tarkibida kreditlardan olingan foizlardan keyingi ikkinchi o'rinni qimmatli qog'ozlardan olingan foizlar egallaydi. Biz bitiruv malakaviy ishining ushbu bobida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar shaklidagi aktivlarining tarkibi va dinamikasini ko'rib chiqamiz.

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, yaqin-yaqingacha respublikamiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar portfelida davlat qisqa muddatli obligatsiyalarlariga qilingan investitsiyalar yuqori salmoqni egallardi. Bu esa, banklarning tijorat qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarini rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, mazkur holat tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar portfelini diversifikatsiya darajasini nisbatan past ekanligidan dalolat beradi. Bu esa, ushbu operatsiyalardan olinadigan daromadlarning miqdori va darajasiga salbiy ta'sir qiladi. Ayni vaqtda, shuni ta'kidlash lozimki, tahlil qilingan davr mobaynida banklarning tijorat qimmatli

²² www.nbu.uz sayti ma'lumotlari

qog'ozlariga qilingan investitsiyalarning qimmatli qog'ozlarga qilingan jami investitsiyalarning umumiy hajmidagi salmog'ini o'sishi tendensiyasi kuzatildi. Bu esa, banklarning qimmatli qog'ozlar shaklidagi aktivlarining daromadlilikini oshirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat xisoblanadi.

So'nggi yillar mobaynida respublika tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar portfelida hukumatning qisqa muddatli obligatsiyalari salmog'ining pasayishi kuzatildi. Buning asosiy sababi shundaki, birinchidan, tijorat banklarining tijorat qimmatli qog'ozlariga qilgan investitsiyalari hajmi sezilarli darajada o'sdi; ikkinchidan, hukumatning qisqa muddatli obligatsiyalarlarining emissiyasi to'xtatildi.

O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklari faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida emitent, professional ishtirokchi sifatidagi faoliyatlari sust. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishdan oladigan daromadlari bank daromadlarini shakllantirishda hozirgacha sezilarli o'rin egallagani yo'q. Bundan tashqari, mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatishi uchun aralash model tanlanishidan makroiqtisodiy darajada ko'zlangan asosiy maqsad fond bozorida nobank investitsiya institutlari bilan bir qatorda tijorat banklari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yuzaga keltirish natijada qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish ko'zda tutilgan edi. Lekin afsuski, keyingi paytlarda fond bozorida tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bilan bir xil bo'lgan o'xshash funksiyani bajarishda, ya'ni qimmatli qog'ozlar bozorida jamg'armalarni investitsiyalarga transformatsiya qilishidagi roli pasayib bormoqda.

Bizning fikrimizcha, mamlakatimiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi rolini oshirish va ularning fond bozoridagi faoliyati samaradorligini ta'minlashga birmuncha omillar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bular:

➤ mamlakatimizda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori yaxshi rivojlanmaganligi va unda yuqori likvidlik xususiyatga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarning yetishmasligi hamda to'lovga qobil emitentlarning kamligi.

Ma'lumotlar tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, respublikamizda yuqori likvidlilik xususiyatiga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar juda kam va ayrim qimmatli qog'ozlar turlari amalda mavjud emas. Bunday qimmatli qog'ozlarga hosila instrumentlarini, hukumatning uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarini, subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlarini, to'lovi hukumat tomonidan kafolatlangan korporativ obligatsiyalarni kiritish mumkin.

➤ tijorat banklari tomonidan faol tarzda oldi-sotdi qilinadigan qimmatli qog'ozlarni riskka tortish tartibining yetarli darajada takomillashmaganligi.

Hozirgi vaqtda, dunyoning 100 ga yaqin mamlakatida bank aktivlarini riskka tortishda xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan 2008 yilda ishlab chiqilgan va 2010 yilda amaliyotga tadbiq etilgan tartibdan foydalaniladi. Ushbu tartib birinchi marta 1993 yilda amaliyotga joriy etildi.

Mazkur tartibning amaliyotda mavjud bo'lgan boshqa riskka tortish tartiblaridan farq qiluvchi jihatlaridan asosiylari sifatida quyidagilarni alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin:

➤ Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan tartib tijorat banklarining aktivlarini riskka uchrash darajasi jihatidan bir-biridan keskin farqlash imkonini beradi;

➤ mazkur tartibda birinchi marta tijorat banklarining balansdan tashqari aktivlari riskka tortildi;

➤ tijorat banklarining aktivlarini riskka tortishda banklarning va ular joylashgan mamlakatning reytingi hisobga olinadi.

Holbuki, AQSH va Yaponiya "Markaziy" banklari tomonidan bank aktivlarini riskka tortish tartibida banklarning va ular joylashgan mamlakatlarning reytingi umuman hisobga olinmaydi.

Xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan bank aktivlarini riskka tortish bo'yicha ishlab chiqilgan andozada qimmatli qog'ozlarga nisbatan risk darajasi belgilangan O'zbekiston bank amaliyotida qo'llanilayotgan bank aktivlarini riskka tortish tartibiga ko'ra, hukumatning barcha turdagi qimmatli qog'ozlari muddatidan qat'iy

nazar risksiz aktivlar hisoblanadi. Ammo tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, hukumatning olti oy va undan ortiq muddatga chiqarilgan qisqa muddatli obligatsiyalarlarining daromadlilik darajasi va unga qilingan investitsiyalar real qiymatining pasayishi hollari ham kuzatilmoqda. Shu sababli, fikrimizcha, hukumatning olti oygacha muddatga chiqarilgan qimmatli qog'ozlariga nisbatan 0 foizli, olti oydan ortiq muddatga chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga nisbatan esa 20 foizli risk darajasini belgilash lozim.

Respublikamizning bir qator yirik tijorat banklarida likvidlik darajasi past bo'lgan aksiyalarni sotib olish va buning natijasida moliyaviy yilni zarar bilan yakunlayotgan emitentlarning aksiyalarini qimmatli qog'ozlar portfelida uzoq vaqt davomida ushlab turish hollari tez-tez uchramoqda. Bu esa, mazkur banklarning bank menejmentida va emitentlarning moliyaviy holatini baholash tizimida sezilarli muammolar mavjud ekanligidan dalolat beradi.

- tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar emitentlarining moliyaviy holatini baholash tizimini xalqaro talablardan kelib chiqqan holda takomillashmaganligi.
- tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar portfelini emitentlarning tarmoq xususiyatiga ko'ra diversifikatsiya qilinmaganligi.

Tahlil natijalaridan ma'lum bo'ldiki, mamlakatimizning bir qator yirik tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar portfelini emitentlarning tarmoq xususiyatiga ko'ra diversifikatsiya qilish masalasi hal qilinmagan. Bu esa, o'z navbatida, qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalardagi risk darajasini kuchaytiradi va bankning balansida yirik miqdorda zarar summasining yuzaga kelish xavfini saqlab qoladi.

- mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bilan REPO operatsiyalarini amalga oshirishni rivojlanmaganligi.

Mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bilan REPO operatsiyalarini rivojlantirish orqali, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faolligini oshirishga ko'maklashish zarur.

REPO operatsiyalari mamlakatimiz tijorat banklari uchun qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarning yangi turi hisoblanadi. REPO

operatsiyalari ikkilamchi fond bozorining likvidlik darajasi past bo'lgan sharoitda banklarning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarini rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi.

REPO operatsiyalarining makroiqtisodiy ahamiyati shundaki, uning vositasida tijorat banklarining likvidligini ta'minlash mumkin.

➤ hukumatning qisqa muddatli obligatsiyalari va o'rta muddatli xazina majburiyati emissiya hajmining nisbatan kichik ekanligi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi hukumatining faqat qisqa muddatli obligatsiyalari va o'rta muddatli xazina majburiyatlari mavjud bo'lib, ularning emissiya hajmi kichikdir. Shu boisdan ham ularning tijorat banklari aktivlari hajmidagi salmog'i atigi 2-3 foizni tashkil qiladi.

Ko'pchilik rivojlangan xorijiy davlatlarda, xususan, AQSH va Germaniyada hukumat qimmatli qog'ozlari emissiya hajmiga ko'ra, barcha emitentlar ichida birinchi o'rinni egallaydi. Ikkinchi o'rinda esa tijorat banklari tursa, korporatsiyalar qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish hajmi jihatidan uchinchi o'rinda turadi.

Tijorat banklari o'zining aksiyalarini chiqarganida asosan aksioner jamiyat sifatida namoyon bo'ladilar. Muomalaga obligatsiyalarlar, depozit sertifikatlar, veksellar va boshqalarni chiqarib banklar mamlakatda pul mablag'lari aylanishini tezlashtiradi, yuridik va jismoniy shaxslarning erkin mablag'larni yig'adi va keyinchalik ularni xalq xo'jaligining ustuvor tarmoqlariga yo'naltiradi.

Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini kengaytirishga intilishlariga bir qancha sabablar mavjud. Ularga bevosita bank kreditlaridan foydalanish sohalarining nisbatan qisqarishi, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarning daromadligi darajasining oshishi va boshqalar kiradi. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari keng diversifikatsiyasi ma'lumotlarni tezkor yetkazish va qayta ishlash, fond bozoridagi iqtisodiy holat va uning rivojlanish istiqbollari chuqur va har tomonlama tahlil qilish imkoniyatini beruvchi zamonaviy axborot va telekommunikatsiya vositalarini joriy qilish asosida amalga oshirilmoqda.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorlarida ishtirokining kengayib borishi va ular faoliyati shakllarining keng diversifikatsiyasi yirik moliya-bank guruhlarining tashkil etilishiga asos bo'ldi. Ushbu guruhlar markazida tijorat banklarining o'zlari turib ular atrofida nisbatan mustaqil faoliyat yurituvchi tarkibiy bo'limlar – investitsiya fondlari, konsalting firmalari, trast kompaniyalari, brokerlik firmalari va boshqalar yig'iladi.

Turli hil moliyaviy kompaniyalarini tashkil etib, brokerlik firmalarida ishtirok etib tijorat banklari o'zlarining fond bozoridagi ishtiroklarini kuchaytiradilar. Qimmatli qog'ozlar bozorlarining xalqarolashuvi natijasida milliy tijorat banklari o'zlarining xorijiy aksiyalar va obligatsiyalarlar bilan operatsiyalari hajmini kengaytirmoqdalar. Bu operatsiyalar tijorat banklariga katta daromadlar, shu jumladan kurslardagi farqlar bilan o'ynash(spekulyasiya) yo'li bilan ham, keltirmoqda. Ayniqsa, bunday operatsiyalar hajmi xalqaro mavqega va xorijiy moliya – kredit muassasalari bilan yaqin aloqalarga ega yirik banklarda kattadir.

Tijorat banklarining oxirgi yillarda jadal rivojlanayotgan qimmatli qog'ozlar bozoridagi noan'anaviy faoliyat shakllaridan biri – bu u yoki bu aktivlarga kapital joylash borasidagi masalalar bo'yicha konsalting xizmatlari ko'rsatishdir. Bunday xizmatlar ko'rsatishda bank o'zining ichki axborot tizimiga tayangan holda qilingan turli aktivlarning xavflari va daromadlilik darajalari o'rtasidagi nisbat tahliliga asoslanadi va mijoz uchun qimmatli qog'ozlar sotib olish va ularning daromadlilik dinamikasini hisobga olgan holda qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish borasida algoritmlar ishlab chiqadi.

Yetakchi xorijiy mamlakatlar kredit tizimlarini rivojlantirish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari faoliyatining depozit-ssuda va qimmatli qog'ozlar emissiyasi va investitsiyasiga asoslangan diversifikatsiyasi ularning raqobatbardoshligini oshiradi, zamonaviy moliya kapitali talablariga to'liq javob beradi, ko'rtarmoqli konsernlar va transmilliy korporatsiyalarning diversifikatsiya siyosatlariga mos keladi.

Tijorat banklarining oddiy va imtiyozli aksiyalarini ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida keng ko'lamda oldi-sotdi qilishini ta'minlash lozim.

Buning uchun, avvalo, tijorat banklari tomonidan oddiy aksiyalarga to'lanadigan dividendlar va imtiyozli aksiyalarga to'lanadigan foizlar darajasini investorlarning manfaatiga mos keladigan maqbul darajaga yetkazish lozim. Buning uchun, avvalo, hukumatning qisqa muddatli obligatsiyalarlariga to'lanadigan foizlardan asos sifatida foydalanish lozim, undan keyin investorlarning aksiyalarni sotib olishga qilgan qo'yilmalarining va ulardan oladigan daromadlarining qiymatiga inflyatsiya darajasini va milliy valyutaning almashuv kursi ta'sirini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Aks xolda, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida bank aksiyalariga bo'lgan barqaror talabni yuzaga keltirib bo'lmaydi. Tijorat banklari aksiyalarini qimmatli qog'ozlar bozorida erkin muomalada bo'lishi ta'minlanmas ekan, bank kapitalining bozor bahosini aniqlash imkoni bo'lmaydi.

O'zbekiston tijorat banklarining aksiyalarini xorijiy investorlarga sotish natijasida jalb qilingan mablag'lardan banklarning investitsion kreditlari hajmini oshirishda foydalanish mumkin.

3.2. Qimmatli qog'ozlar bozorida banklar faoliyatini takomillashtirish yo'llari

Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklar ishtirokini faollashtirishning shart-sharoitlari qimmatli qog'ozlar bozori zamonaviy bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi sifatida, bo'sh moliyaviy resurslarni foydali joylashtirishni hohlovchi investorlarning hamda investitsiyalarga ehtiyoj sezgan va jozibali investitsiya loyihalarga ega bo'lgan emitentlarning manfaatlarini uyg'unlashtirishga yordam beradi.

Bank tizimi va qimmatli qog'ozlar bozori milliy iqtisodiyotning yetakchi sohalaridan hisoblanib, davlat tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar, farmonlar, qarorlar va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ushbu sohalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishda davlat tomonidan amalga oshirilgan asosiy chora tadbirlardan biri, bir qator qonunlar qabul qilinishi bilan qimmatli qog'ozlar bozorining davlat boshqaruvidagi vakolatli nazorat idorasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni va Respublika Vazirlar Mahkamasining Qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi huzurida qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazining tashkil etilishi hisoblanadi. Markaz O'zbekiston Respublikasi Prezident Farmoni va Respublika Vazirlar Mahkamasining Qaroriga asosan tasdiqlangan Nizomiga binoan Respublikada qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirishi, rivojlantirish, nazorat qilish va boshqarish sohasida davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirib kelmoqda.

Tijorat banklari tobora o'zlariga xos bo'lmagan operatsiyalarini amalga oshira borib banklar uchun noan'anaviy hisoblangan moliya tadbirkorligini joriy etmoqda, jumladan, qimmatli qog'ozlar operatsiyalarini lizing va faktoring hamda kredit-moliya xizmatining boshqa turlari bilan shug'ullanmoqda, taqdim etiladigan xizmatlar doirasini tinmay kengaytirib, sifatini yaxshilamoqda, yangi istiqbolli mijozlarni jalb qilish uchun raqobatlashmoqda.

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining faoliyat mexanizmlari va ularni tartibga solishni yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi tahliliy natijalarga kelindi;

- qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining davlat va o'z-o'zini muvofiqlashtirish institutlari tomonidan tartibga solish tizimining takomillashtirish darajasini oshirish maqsadga muvofiqdir;

- banklar qimmatli qog'ozlar bozorida passiv va aktiv operatsiyalarni sust olib bormoqdalar;

- banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya, emissiya va dividend siyosatlari talab darajasida emas;

- banklar qimmatli qog'ozlar bozorida professional ishtirokchisi sifatida sust faoliyat yuritmoqda;

➤ banklarda korporativ boshqaruv va menejment masalalari passiv hal etilmoqda;

➤ banklarning kredit va qimmatli qog'ozlar bozoridagi siyosatlarini balansi past samara bermoqda;

➤ banklarning qimmatli qog'ozlardan oladigan daromadlari boshqa daromadlarga qaraganda ancha past;

➤ banklarning investitsion portfelining miqdori faqat davlat banklarida ko'p ulushni tashkil qiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan tadbirlar natijasida O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatini qimmatli qog'ozlar bozorida faollashtirishda asosiy e'tibor quyidagi yo'nalishlarga qaratilishi maqsadga muvofiq.

➤ tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatining huquqiy va me'yoriy asoslarini takomillashtirish;

➤ o'z-o'zini muvofiqlashtiruvchi tashkilotlarning roli va vazifasini takomillashtirish;

➤ tijorat banklarida korporativ boshqarish va menejmentni yaxshilash.

Ushbu yo'nalishlarni amaliyotga chuqurroq tadbiriq etilishi qimmatli qog'ozlar bozoridagi tijorat banklari investitsion faoliyatini yanada jadallashtirishga olib kelishi mumkin. Hozirda banklarning investitsion faoliyatini samarali amalga oshirishda quyidagi muammolar mavjud:

➤ banklarning ustav fondidagi davlatning ulushi kattaligi, emissiya qilingan aksiyalarning past aksiyalar taklifi, muomalada faqatgina emissiya qilingan aksiyalarning o'z miqdori mavjud;

➤ aksiyalarni kichik lotlar bilan joylashtirilmaydi, bu esa aksiyalarni yoyilishiga yo'l qo'ymaydi va ikkilamchi bozorda banklarning investitsiya faoliyatini rivojlanishiga xalaqit beradi;

➤ qimmatli qog'ozlar likvidligini yo'qligi banklarning investitsion faoliyatini yuritishda riskning yuqori ekanligini bildiradi;

➤ emitentlar faoliyatini shaffof emasligi banklarning faol investitsion faoliyat yuritish o'rniga qimmatli qog'ozlar bozorida passivligiga olib keladi;

➤ listingni rivojlanmasligi banklarni bozor kotirovkasida manfaat yo'qligini bildiradi;

➤ banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida investitsion va emission siyosatining sifatini pastligi va ularda qimmatli qog'ozlar bozorida vositachilik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha strategiyani yo'qligi.

O'zbekistonda banklarning investitsion faoliyatini rivojlanish istiqbollari quyidagicha:

➤ banklarning investitsion riskini sug'urtalash tizimini ishlab chiqish va qo'llash, investitsiya va risklarni sug'urtalash fondini tashkil etish;

➤ Market – meyker institutini rivojlanishiga soliq imtiyozlarini yaratish qimmatli qog'ozlar likvidliligini va bozor kotirovkasini ta'minlaydi, bu esa fond bozorida banklarning investitsion faolligini oshiradi;

➤ qimmatli qog'ozlar bozorida banklar faoliyatini reyting baholashini ishlab chiqish va qo'llash;

➤ qimmatli qog'ozlar bozorida banklar va sug'urta kompaniyalarning investitsion faoliyatini faollashtirish;

➤ milliy qimmatli qog'ozlar bozorini xalqaro fond birjalar bilan integratsiyalashuvini ta'minlash, bu esa banklarning investitsion faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Respublika qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining investitsion faoliyatini va faolligini rivojlantirish va istiqbollarini belgilashda davlat tomonidan bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan bank tizimini shakllantirish, banklarni moliya bozorlarida, jumladan qimmatli qog'ozlar bozoridagi rolini faollashtirish, ularning faoliyatini jahon banklari amaliyotiga yaqinlashtirish va pirovard natijada, banklarning ichki va xalqaro moliyaviy bozorlarda raqobatbardoshligini yuqori darajasiga erishish davlat tomonidan bank tizimini isloh qilishning strategik maqsadi hisoblanadi. Bu

maqsadga erishish uchun, banklarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish jarayonlarini chuqurlashtirish, tijorat banklarini yanada aksiyadorlashtirish, banklarga rahbarlik qilishda aksiyadorlarning rolini oshirish yo‘li bilan korporativ boshqarish tizimini mustahkamlash lozim.

O‘zbekiston Respublikasida qimmatli qog‘ozlar bozoridagi tijorat banklarining investitsiya faoliyatini jadallashtirish yo‘lidagi asosiy vazifalardan biri – bu bozorning axborot shaffofligi darajasini oshirishdan iboratdir, ya’ni tegishli axborotga qiziqishi paydo bo‘lgan shaxslar uni olishda teng huquqqa ega bo‘lishlaridir. Ushbu masalani yechishda qimmatli qog‘ozlar bozoriga oid axborot shaffoflik tizimini yaratish muhim ahamiyatga ega. Investorlar tomonidan qo‘yilgan asosiy shartlardan biri bo‘lib emitentlar va ularning qimmatli qog‘ozlar haqidagi axborot sifat darajasining oshishidir. Har bir investor qimmatli qog‘ozlarga mablag‘ ajratishdan oldin emitent va qimmatli qog‘ozlar harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilib riskga baho beradi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo‘mitasi qoshidagi qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi faoliyati aynan shunga qaratilgan.

Investorlarning milliy qimmatli qog‘ozlar bozoriga bo‘lgan qiziqishi o‘sishini ta’minlash maqsadida quyidagilarni amalga oshirishni shakllantirish (rivojlantirish) lozim:

- investorlar emitent-zayom oluvchining tahminiy loyihasidan bo‘lgan risk va investitsiya rejalarini to‘liq yoritib beruvchi asosiy hujjat bo‘lmish qimmatli qog‘ozlar emissiyasining standartlashtirilishi;

- investorlarga emitent-zayom oluvchi tomonidan jamg‘armalarni boshqarish samaradorligi va investitsiya daromadliligini istiqbollarining ishonchliligini nazorat qilish borasida emitentlarning joriy hisobotini standartlashtirish.

Qisqa muddatli istiqbolda qimmatli qog'ozlar bozorining axborot shaffofligini ta'minlash va axborotni taqdim etish masalasining muhimligi hamda kompleksliligini e'tiborga olgan holda quyidagilarni amalda qo'llash mumkin:

- emitentlar va qimmatli qog'ozlar bozorining qatnashchilariga oid axborotni oshkoralashtirish masalasiga doir me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish;

- axborot agentliklari, OAV, konsultatsiya beruvchi firmalar va qimmatli qog'ozlar bozorida qatnashuvchi chet el investorlar o'rtasidagi tegishli ma'lumotlarni axborot bozoriga taqdim etish va muayyan investorlarni ta'minlash masalalari bo'yicha hamkorlik darajasini oshirish.

Hozirgi davrda qimmatli qog'ozlar bozorida axborotni oshkora etishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy bazaning yaratilishiga qaramay investorlarning mamlakat bozorida olib borayotgan faoliyatining sustligi emitent va savdo tizimiga oid axborotning yetarli emasligi bilan ifodalanadi.

O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlar faoliyati haqidagi ma'lumotlarning aksiyadorlar va potensial investorlar uchun yopiqqligini e'tiborga olib hamda kompaniyalarning faoliyati va moliya-xo'jalik ahvolining shaffofligini ta'minlash maqsadida investorlar bilan amaldagi o'zaro munosabatlarni rivojlantirish zarur.

Ushbu sohada mavjud bo'lgan xalqaro tajribaga tayanib o'ylaymizki, milliy bozorimizda investorlar bilan aloqalarni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar quyidagi ko'rinishda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- kompaniya faoliyati to'g'risida tahliliy-axborot ma'lumotlarni tayyorlash va tarqatish (yillik hisobotlar, press-relizlar va matbuot nashrlari);

- kompaniya rahbariyati hamda investitsiya birlashmalari bilan uchrashuvlar va internet-konferensiyalarni o'tkazish;

- kompaniya va uning faoliyatini internetda yoritish borasida axborot va ma'lumotlarni joylashtirish.

Aksiyalarga bo'lgan ehtiyojni, bu degani kompaniyaga mablag'larni jalb etish, uning emitentlari va aksiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni gazeta, radio va televideniye yordamida reklamalarni joylashtirish orqali erishiladi.

Yuqorida qayd etilgan tavsiyalarni amalga oshirish bilan birga O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorlariga oid ma'lumotlarni shaffoflik tizimi samaradorligini ko'tarish uchun quyidagilarni bajarish lozim:

- manfaatdor shaxslarga fond bozori haqidagi ma'lumotlarni yetkazib berish kanallarini kengaytirish;
- aksiyalar bozorida axborot-tahliliy tashkilotlarning faoliyatini diversifikatsiya qilish (muayyan bitimlarni ekspertizadan o'tkazish, konyukturani o'rganish va tahlil qilish, huquqiy konsultatsiyalar);
- O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori holatini va iqtisodiyotning bir sohasi hisoblanuvchi investitsiya obyektlarini tavsiflovchi ixtisoslashtirilgan nashrlarni qo'llab-quvvatlash;
- bozorning barcha qatnashchilari faoliyatini yagona axborot berish tizimini yaratishga jalb etish.

Shu bilan birga axborot shaffofligi samaradorligini oshirish uchun asosan axborot kanallarini kengaytirish, axborot tahliliy tarmoqlar faoliyatini diversifikatsiya qilish, ixtisoslashda nashrlarni qo'llab-quvvatlash, yagona axborot tizimini yaratish lozim.

Iqtisodiyotga yo'naltirilgan kreditlar hajmini oshirish va banklarning investitsion jarayonlaridagi ishtirokini yanada kengaytirish borasida:

- iqtisodiyotning real sektori korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash bo'yicha investitsion loyihalarini, jumladan hududlarni rivojlantirish dasturlariga kiritilgan loyihalarni kreditlash hajmlarini yil mobaynida 30 foizga ko'paytirish;
- O'zbekiston banklar assotsiatsiyasi qoshida tijorat banklari bilan hamkorlikda qimmatli qog'ozlar bozorida banklarning faolligini oshirishni moliyalashtirish jamg'armasini tashkil qilish;

➤ tijorat banklarining ustav kapitaliga yoʻnaltirilgan maqsadli mablagʻlar hisobidan iqtisodiyotning real sektori korxonalarini imtiyozli kreditlash boʻyicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni davom ettirish;

Banklarimiz daromadini oshirishi mumkin boʻlgan operatsiyalardan yana biri bu trast operatsiyalari boʻlishi mumkin. Oʻrganilgan davr mobaynida mamlakatimiz tijorat banklarining trast operatsiyalari deyarli mavjud emasligini guvohi boʻldik. Bu boradagi faoliyatni rivojlantirish uchun avvalombor berilgan takliflar asosida mamlakatimiz fond bozorini rivojlantirish va aholining banklarga boʻlgan ishonchini oshirish zarur boʻladi.

3-bob boʻyicha xulosa

Oʻzbekistonda tijorat banklarining qimmatli qogʻozlar faoliyati tahlili shuni koʻrsatadiki, tijorat banklarining qimmatli qogʻozlar bozorida emitent, professional ishtirokchi sifatidagi faoliyatlari ijobiy darajasi sust. Banklarning qimmatli qogʻozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishdan oladigan daromadlari bank daromadlarini shakllantirishda hozirgacha sezilarli oʻrin egallagani yoʻq. Bundan tashqari, mamlakatimizda fond bozorining faoliyat koʻrsatishi uchun aralash model tanlanishidan makroiqtisodiy darajada koʻzlangan asosiy maqsad fond bozorida nobank investitsiya institutlari bilan bir qatorda tijorat banklari oʻrtasida sogʻlom raqobat muhitini yuzaga keltirish natijada fond bozorini rivojlantirish koʻzda tutilgan edi. Lekin afsuski, keyingi paytlarda fond bozorida tijorat banklari qimmatli qogʻozlar bilan bir xil boʻlgan oʻxshash funktsiyani bajarishda, yaʼni fond bozorida jamgʻarmalarni investitsiyalarga transformatsiya qilishidagi roli pasayib bormoqda.

Hozirgi davrda qimmatli qogʻozlar bozorida axborotni oshkora etishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy bazaning yaratilishiga qaramay, investorlarning mamlakat bozorida olib borayotgan faoliyatining sustligi emitent va savdo tizimiga oid axborotning yetarli emasligi bilan ifodalanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Turli mamlakatlarda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi o'rni turlichadir. Lekin, tijorat banklarining milliy va xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorlari bilan o'zaro munosabatlarida umumiy bog'liqlik mavjud. Bankka berilgan ta'rifdagi barcha ko'rsatmalar banklarning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiradigan ham emission, ham investitsion, qolaversa to'lovlarni amalga oshirishda vositachilik operatsiyalarini nazariy metodologik asosini tashkil qilar ekan.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida amalga oshirilgan tahlillarning natijalariga asoslangan holda, quyidagicha xulosa chiqarish mumkin.

1. Jahon amaliyotida qimmatli qog'ozlar bozoridagi banklar siyosati ko'p maqsadlarni o'zida mujassamlashtirgan holda ishlab chiqiladi. Ularning asosiylari quyidagilar bilan bog'liqligi aniqlandi:

- ✧ o'z qimmatli qog'ozlarini emissiya qilish asosida an'anaviy kredit va hisob-kitob operatsiyalari uchun qo'shimcha pul mablag'larini jalb qilish;

- ✧ tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishi asosida, to'lanadigan foizlar va dividendlar hamda qimmatli qog'ozlarni kurs baholarining ko'tarilishi hisobiga daromadlar olish;

- ✧ qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarda mijozlarga turli xizmatlar ko'rsatishdan daromad olish;

- ✧ korxona va tashkilotlarning kapitallarida ishtirok etish hisobidan bankning ta'sir doirasini kengaytirish va yangi mijozlarni jalb qilish;

- ✧ bank tomonidan tanqis bo'lgan resurslarga erishish imkoniyatini beruvchi qimmatli qog'ozlarni qo'lga kiritishi va shu resurslarni egalariga aylanishi;

- ✧ qimmatli qog'ozlarni sotib olish orqali qo'shimcha daromadlar olish va mijozlarning moliyaviy risklarini hosilaviy qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari orqali sug'urtalash.

2. Bank–emitentlarning aksiya va boshqa qimmatli qog‘ozlarini fond birjasi orqali joylashtirishni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Ushbu vazifani samarali hal qilishning yo‘nalishlaridan biri bu – emitentlarni fond birjasining listingiga kiritishdir. Qimmatli qog‘ozlarni fond birjasining listingiga kiritish ularning likvidligini oshiradi hamda ustav kapitalini oshirish masalalarini echishda ko‘mak bo‘ladi. Shuning uchun Respublika Fond birjasining listingiga qo‘yilgan talablarni bir oz yumshatish maqsadga muvofiqdir.

3. Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha qonunchilik mamlakat tijorat banklarining barchasi tomonidan rioya qilinmayapti. Alohida hududlar va sohalar bo‘yicha hali hozirgacha investorlarning huquqlari to‘liq himoya qilingani yo‘q. Bu ayniqsa dividendlarni o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishida, qimmatli qog‘ozlar egalari huquqlarini hisobga olishda, emitentning moliyaviy ahvoli haqidagi axborotni olishda namoyon bo‘lmoqda. Ko‘pchilik investorlar, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlariga nisbatan noqonuniy xatti–harakatlar sodir etilganda har doim ham o‘zlarining qonuniy huquqlari va emitentning javobgarligi to‘g‘risida obyektiv axborotga ega bo‘lolmayapti.

Investor huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilikning ijrosidagi asosiy muammolardan biri deb qimmatli qog‘ozlar bozorini boshqaruvchi va tartibga soluvchi organlarining bu boradagi huquq–majburiyatlarini, hamda investor huquqlarini himoya qilishning samarali huquqiy shakllari etarli darajada ishlab chiqilmaganligini aytish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida quyidagi amaliy takliflarni shakllantirdik:

1. Bizning fikrimizcha, mamlakatimizdagi yirik tijorat banklarining xalqaro fond birjalariga o‘z qimmatli qog‘ozlarini olib chiqish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yuzaga keltirish lozim.

Mahalliy tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlarni chet el fond birjalariga olib chiqishni rag‘batlantirish uchun bunday banklarga hukumat tomonidan soliqlar bo‘yicha imtiyozlar berilishi kerak.

2. Banklarning hosilaviy qimmatli qog'ozlar bilan muomalalari va spekulativ operatsiyalar bilan shug'ullanishlari uchun malakali mutaxassis va ekspertlarni jalb etgan holda bozor operatsiyalarini rivojlantirish lozim.

3. Qimmatli qog'ozlarni emissiyasi tartibini soddalashtirish va rasmiylashtirish davrini qisqartirish choralarini ko'rmoq lozim.

4. Emitentlar moliyaviy imkoniyatlarini oshirish maqsadida emissiya xarajatlarini kreditlash tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunda emitentlar uchun markaziy bank tomonidan foizsiz yoki juda past foizli qarzarlar va imtiyozlar berilishi lozim.

Mamlakat qimmatli qog'ozlar bozori va unda tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- tijorat banklari tomonidan bo'sh pul mablag'larini jalb qilish maqsadida, aholi uchun mo'ljallangan yuqori daromadli jamg'arma sertifikatlarini chiqarish;

- investitsiya institutlari tomonidan qimmatli qog'ozlardan ko'rilgan zararlarni qoplash maqsadida qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilgan investorlar manfaatlarini himoya qiluvchi fondlarni tashkil etish;

- qimmatli qog'ozlar va fond birjalari bo'yicha davlat komissiyasi bilan birgalikda nodavlat tuzilmalari faoliyatini xolisona tekshiruvdan o'tkazib turadigan, ko'pgina fond bozori rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lgan, auditorlik komissiyasini tashkil etish;

- bank qimmatli qog'ozlarining ikkilamchi bozoridagi faolligini, jumladan aksiyalar bo'yicha oldi-sotdi bitimlarinigina hajmini oshirish maqsadida, savdolar tizimini hamda savdolarni ikkiyoqlama auktsion usulida olib borish, bir vaqtning o'zida pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlarni bir mijozdan ikkinchisiga o'tkazish imkonini beradigan elektron dasturini yaratish;

- bozor infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida fond bozori ishtirokchilarini axborot bilan ta'minlashning yagona tizimini ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Me'yoriy huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Korporativ boshqaruv" to'g'risidagi Kodeksi 11 fevral 2016 y
2. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni 2008 yil 22 iyulda qabul qilingan. Toshkent. Adolat 2015y.
3. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va atsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. 1996 yil 26 aprelda qabul qilingan.(2014y. fevral) Toshkent. Adolat 2016 yil.
4. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan. Toshkent. O'zbekiston 2003 yil.
5. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan. Toshkent. O'zbekiston. 2003 yil.
6. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 1998 yil 23 avgustda qabul qilingan. Toshkent. Adolat. 2002y.
7. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 2001 yil 30 avgustda qabul qilingan. Toshkent. Adolat. 2002 y.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 1995 yil 7 sentyabrdagi Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish va respublika fond bozorida xorijiy sarmoyadorlarning ishtirokini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 1997 yil 31 martdagi Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fond bozorini yanada rivojlantirish va davlat mulki negizida barpo etilgan aksiyadorlik jamiyatlarini

qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi 1998 yil 2 oktyabrdagi Farmoni.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aksionerlik tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1998 yil 2 oktabrdagi PF-2084-sonli farmoni.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2006 yil 27 sentabrdagi PF-475-sonli qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini taminlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi Farmoni. 2008 yil 28 noyabr, PF-4058 "Xalq so'zi" gazetasi 29.11.2008 y.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi "Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2344-sonli Qarori

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi "2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi. PQ-1438-sonli Qarori. "Xalq so'zi" gazetasi. 2010 y. 27 noyabr

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2007 yil 7 noyabr, PQ-726. "Xalq so'zi" gazetasi. 08.11.2007 y.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirishning chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori Xalq so'zi. 2005 yil 15 aprel.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi PQ-1166-sonli "Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga

yo‘naltirilgan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 6 apreldagi PQ- 1317-sonli “Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda
“O‘zbekiston Respublikasi 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2699 son qarori

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevralda
“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947 sonli farmoni.

22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Qimmatli qog‘ozlarning Markaziy depozitariysini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to‘g‘risida»gi 1999 yil 21 mayda
263-sonli qarori.

23. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Bank tizimini isloh qilishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2000 yil 24 martda
104-sonli qarori.

24. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Banklar atsiyalarining davlatga tegishli paketlarini potensial investorlarga sotish bo‘yicha davlat tender komissiyasi to‘grisida»gi 2001 yil 3 mayda
205-son qarori.

25. «Muomalaga o‘rta muddatli g‘azna majburiyatlarini chiqarish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining Qarori.
10.01.2004.

26. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Banklarning depozit sertifikatlarini chiqarish, ro‘yxatga olish va ularning muomalada bo‘lishi tartibi»,
1994 yil 24 dekabrda
103-sonli sirkulyari.

27. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bilan operatsiyalar o‘tkazish to‘g‘risida»gi 1996 yil 26 martda
22-sonli buyrug‘i.

28. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan «Hosila qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ularning muomalada bo'lish tartibi to'g'risida nizom», 1997 yil 2 aprelda 320-raqam bilan ro'yxatga olingan.

29. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan «Qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya institutlarini litsenziyalash to'g'risida nizomi», 1999 yil 13 yanvarda 593-raqam bilan ro'yxatga olingan.

30. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining depozit sertifikatlarini chiqarish to'g'risidagi nizomi», 1998 yil 9 fevraldagi 624-sonli sirkulyari.

31. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2008 yil 27 dekabrda "Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalarga va ularning boshqa korxonalar ustav kapitalida qatnashishiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 30/2-sonli Nizom

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

32. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.

33. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 104 b.

34. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.

35. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 48 b.

36. Karimov I.A. "Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik". –T: "O'zbekiston", 2011-yil 21 bet.

37. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: «O'zbekiston». 2009.-56 b.

38. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. -T.: “O'zbekiston”. 2010. -80 b.

3. Darsliklar va o'quv adabiyotlar

39. Abdullayeva Sh.“Bank ishi” darslik,Toshkent, “Iqtisod-Moliya”, 2010-yil.216bet.

40. Abdullaeva Sh. Pul, kredit va banklar. Darslik.-T.: “Iqtisod-Moliya”, 2007 –yil. 530 bet.

41. Alimov I.I. Xusanboev A.G'. Ikramov A.I. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari. O'quv qo'llanma. T.: TDIU 2010. 214 bet.

42. Azizov U. va boshqalar. “Bank ishi” darslik,Toshkent, “Iqtisod-Moliya”, 2016-yil. 764bet.

43. Butikov I.L. Qimmatli qog'ozlar bozori. - T.: Konsauditinform, 2001. 494bet.

44. Галанов В.А., Басов А.И. Рынок ценных бумаг: Учебник - М.: Финансы и статистика, 2000.

45. Жуков Е.Ф., Зеленкова Н.М. Деньги. Кредит.Банки: учебник для студентов вузов.- 4-е изд., перераб. и доп. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009.783с.

46. Килячков А.А., Чалдаева Л.А. Рынок ценных бумаг и биржевое дело: Учеб.пособие. 2-е изд., с изм. - М.: Экономистъ, 2005. 687 с.

47. Макнотон Д. и др. Банки на развивающихся рынках. - М.: Финансы и статистика, 1994 г. 245 стр.

48. Меньшиков И.С. “Финансовый анализ ценных бумаг” М. 1998 г.

49. Mullajonov F.M. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi. - T.: O'zbekiston, 2011. 296 bet.

50. Nosirov E.I. “Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining rolini oshirish masalalari”. Avtoreferat i.f.n. O'zb.RBMA-T. 2003 yil 25-bet.

51. VahobovA., JumaevN., BurxanovU. Xalqaro moliya munosabatlari. -T.:

Sharq, 2003. 400 bet.

52. Шохаъзамий Ш.Ш. “Финансовый рынок и ценные бумаги” КНИГА I-II. Учебник. - Т.: “Иктисод - молия”, 2005. 740 с.

53. Шохаъзамий Ш.Ш. Биржевая деятельность. Учебник. - Т.: Иктисод-молия, 2005. 294 с.

54. Shoha'zamiy Sh.Sh.”Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar”. Darslik. - Т.:Fan va texnologiya, 2012. 272 bet.

V. Internet saytlari

55. <http://www.cbu.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki).

56. [http:// www.banking.com](http://www.banking.com) (Moliyaviy xizmatlar bo‘yicha ma’lumot sayti);

57. <http://www.gov.uz> (O‘zbekiston Respublikasining hukumat portali).

58. <http://www.uzse.uz> (Toshkent Fond birjasi)

59. <http://www.nbu.uz> (Tashqi iqtisodiy Faoliyat Milliy banki rasmiy sayti)

60. [http:// www.Aloqabank.uz](http://www.Aloqabank.uz)(AT “Aloqabank” rasmiy sayti).